

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHN TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

ISRAIL MUKADDAS IRGASHEVNA

**SOTSIOLINGVISTIK OMILLARNING
TIL TARAQQIYOTIGA TA’SIRI
(o‘zbek va rus mediamatnlari misolida)**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philological sciences
(DSc)**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
филологических наук (DSc)**

Israil Mukaddas Irgashevna

Sotsiolingvistik omillarning til taraqqiyotiga ta'siri

(o'zbek va rus mediamatnlari misolida) 3

Israil Mukaddas Irgashevna

The INFLUENCE of SOCIOLINGUISTIC FACTORS

on LANGUAGE DEVELOPMENT (BASED on EXAMPLES

from UZBEK and RUSSIAN MEDIA TEXTS) 46

Исраил Мукаддас Иргашевна

Воздействие социолингвистических факторов на развитие языка

(на примере узбекских и русских медиатекстов) 89

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ 96

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILARI UNIVERSITETI

ISRAIL MUKADDAS IRGASHEVNA

SOTSIOLINGVISTIK OMILLARNING
TIL TARAQQIYOTIGA TA’SIRI
(o‘zbek va rus mediamatnlari misolida)

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Fil814 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.uzswlu.uz)da va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Teshabayeva Dilfuza Mo‘minovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xamrayeva Shahlo Mirdjonovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Siddiqova Iroda Abduzuhurovna
filologiya fanlari doktori, professor

Bakirov Poyon O‘rolovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil “____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel: (99871) 230-12-91. faks: (99871) 230-12-92; (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-91; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. tel: (99871) 230-12-91. Faks (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «____» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil « ____ » _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
Ilmiy kengash kotibi, f.f.d., professor

J.A.Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, f.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ilm-fan, texnika, madaniyat va siyosat sohasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar yangidan yangi tushunchalarning iste'molga kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Jahon mediamakonida tilning ijtimoiy hodisa sifatida o'rganilishi, mediamatnning jamiyatdagi o'zgarishlarga sezgirligi uning ijtimoiy, madaniy, texnologik va ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bog'liqligining tadqiqi juda dolzarb va ko'p qirrali ilmiy yo'nalish ekanligidan dalolat beradi. Zero, sotsiolingvistika til jamoasi, uning vaziyati, ijtimoiy-kommunikativ tizim, til kodi, siyosati va tilning taraqqiyoti kabilarni o'z ichiga oladi. Til jamiyatning ma'lum bir ijtimoiy tuzilmasi doirasida faoliyat ko'rsatganligi sababli sotsiolingvistika tilni uning ijtimoiy kontekstida o'rganadigan fan sanaladi. Har qanday milliy til xalqning tarixiy-madaniy hayotida muhim vosita hisoblanadi. Milliy siyosatning to'la amalga oshishida milliy tillar haqidagi ta'limotning til taraqqiyotidagi rolini atroflicha, ilmiy asosda o'rganish zarurati mavjuddir.

Dunyoda til taraqqiyotiga oid qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Germaniya, Avstraliya, Kanada, Qozog'iston kabi rivojlangan mamlakatlarning ilmiy maktablarida sotsiolingvistika, tilning taraqqiyot bosqichlari, xususan, media tili va uslubining til taraqqiyotidagi o'rni, tilning ijtimoiy-madaniy mavqei va o'ziga xosligi, tillarning diaxronik va sinxronik jihatlari, til siyosati kabi masalalarga oid salmoqli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ular til taraqqiyotida lingvistik hodisani tavsiflash, tilning voqelanishidagi mohiyati, xususiyatlarini har tomonlama o'rganish, tilni qo'llash sohalariga ko'ra tahlil qilish, uning boyish manbalari va usullari, lug'aviy tizimdagi, ijtimoiy-siyosiy kontekstdagi o'zgarishlarining tilga ta'siri masalalarini qamrab olgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda til taraqqiyoti masalasi yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, bu zamonaviy jamiyatimizda OAV, shu jumladan, yangi mediaplatformalar zamonaviy adabiy tilimizni shakllantirishning asosiy omiliga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Bu hodisa ko'plab, jumladan, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda OAV muhim rol o'ynaydi. Media tili o'zining cheksiz auditoriyasi, ekspressiv usullarining xilma-xilligi tufayli milliy tilning asosiy unsuriga aylanmoqda. Mediamatnlar tilning dinamik holatlarini ifodalash bilan birga, unda yuz berayotgan jarayonlarni o'zida aks ettiradi, tilning xususiyatlari va holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Til taraqqiyotida adabiy tilni targ'ib qilishda OAVning roli juda muhimdir. Bu o'zgarishlar akademik fanda, ayniqsa, "media tili" kabi tushunchaning shakllanishi va mustahkamlanishi orqali o'z aksini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yildagi “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-402-I-sonli, 2007-yildagi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-78-sonli qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli, 2022-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-294-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyundagi “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 262-sonli qarori va ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Milliy tillarning sotsiolingvistik aspektda tadqiq qilish masalasi borasida bir qator ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot maktablari hamda ta‘lim muassasalarida, jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida Stenford Universitetining lingvistik bo‘limida sotsiolingvistik borasida hamda tilda yuz berayotgan o‘zgarishlar va til siyosati masalalari tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, Dyuka Universiteti sotsiolingvistik va medialingvistik masalalarini tadqiq qilishda yetakchilik qiladi. Buyuk Britaniyaning Lankaster universiteti, King’s College London kolleji medialingvistik, korpus

¹ www.studylib.ru/education/higher-education/vuzy/stanford-university; www.unipage.net/ru/395/duke_university;
www.london.ac.uk/federation/kings-college-london; www.world.uz/ru/post/view/universitet_lankaster; www.-euni.ru/vuzy/germaniya/gamburg/gamburg/uni-hamburg; www.monash.edu/

lingvistikasi, diskurs tahlili va sotsiolingvistika yoʻnalishlari tadqiqida yetakchi hisoblanadi. Kanadaning Toronto universiteti sotsiolingvistika boʻyicha keng dasturlarni ishlab chiqish bilan birga, til aloqalari, til siyosati borasidagi tadqiqotlarni amalga oshiradi. Germaniyaning Gamburg (Universität Hamburg) universitetida medialingvistika, til va media, tilning sotsiolingvistik tahlili bilan shugʻullanuvchi maktab mavjud. Avstriyaning Monasha (Monash University) universitetida ham turli tizimli tillarning sotsiolingvistik yondashuv asosida tadqiqiga alohida eʼtibor qaratiladi. Shuningdek, Moskva davlat lingvistik universitetida (MGLU) xorijiy tillarning lingvistik xususiyatlari tadqiq qilinadi. Universitetda til nazariyasi va sotsiolingvistika, medialingvistika borasida dasturlar ishlab chiqish, dissertatsiyalarni himoyaga tayyorlash faol ravishda olib boriladi. Rossiya fanlar akademiyasining tilshunoslik instituti til nazariyasi, lingvistik tipologiya, sotsiolingvistika kabi yoʻnalishlarga ixtisoslashgan. Oʻzbekiston jahon tillari universitetida ham medialingvistika, sotsiolingvistika va til nazariyasining dolzarb muammolari tadqiqi amalga oshirilmoqda. Hozirda jahon tilshunosligida til nazariyasi va tipologiyasi, sotsiolingvistika kabi yoʻnalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Til nazariyasining rivojlanishiga bagʻishlangan koʻplab zamonaviy tadqiqotlar mavjud. Ular tilning paydo boʻlish evolyutsiyasi va taraqqiyotini, til tuzilmasiga taʼsir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlashga qaratilgan. Til fenomenlarini ijtimoiy kontekstda, yaʼni til va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar doirasida oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlar til variantlarining ijtimoiy guruhlar oʻrtasida qanday farqlanishi, tilning ijtimoiy mavqei, shuningdek, uning ijtimoiy omillarini oʻrganish bilan tavsiflanadi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oʻzbek va rus tilshunosligida sotsiolingvistik tahlilga oid X.Yoʻldasheva, S.M.Moʻminov, M.Sulaymonov, M.A.Qurbonova, N.Sabirova, H.Neʼmatov B.Joʻrayeva, R.Madjidova, X.Ismoilov, Gʻ.Rahimov Y.D.Desheriyev, S.V.Kirilenko, V.M.Alpatov, A.N.Baskakov, L.L.Ayupova, T.B.Kryuchkova, V.K.Juravlev, O.A.Ponomarenko, S.I.Treskova, S.G.Kulagina, L.P.Krisin, V.A.Avrarin, E.G.Tumanyan, A.D.Shveyser, L.B.Nikolskiy² kabi olimlarning tadqiqotlarini

² Йўлдашева Х. Ўзбек тарихий романларининг социолингвистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 45 б.; Сулаймонов М. Ўзбек тилидаги дастхатларнинг социолингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 151 б.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри... дисс. – Т., 2000; Курбонова М.А. Ўзбек болалар лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2009. –177 б.; Сабирова Н. Социолингвистик тадқиқотлар ва уларнинг ривожланиш босқичлари. Fargʻona davlat universiteti, 2023, (2), 47. // https://doi.org/10.56292/sjfsu/vol_iss2_/a47; Нормуродов Р. Социолингвистика. – Термиз, 2008; Неъматов Х., Жўраева Б. Социолингвистика. – Бухоро, 2004; Исмоилов Х. Суд нутқининг социолингвистик таҳлиliga доир. – Fargʻona davlat Universiteti, (6), 24.2023. // https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol_iss6/a24; Маджидова Р. Речевое поведение человека в социолингвистической и психолингвистической трактовках. – Fargʻona davlat universiteti, (1), 20.2023. // https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol_iss1/a20; Рахимов Ғ. Инглиз тилининг Ўзбекистонда тарқалиши (социолингвистик ва прагматик жиҳатлар): Филол. фан. д-ри. дисс... – Тошкент, 2018.; Дешериев Ю.Д. Социальная лингвистика. К основам общей теории. – М.: Наука, 1977. – 382 с.; Кириленко С.В. Процессы формирования понятийного аппарата

keltirish mumkin. Tadqiqotlarda sotsiolingvistikaning dolzarb masalalari, til orqali jamiyat a'zolari identikligini shakllantirishi, madaniy meros, tarixiy qadriyatlar masalasi, paremiyalarning sotsiolingvistik aspektda tadqiqi, adabiy me'yorlarini shakllantirish, turli guruhlar o'rtasida tildan foydalanish dinamikasi, til siyosatining turli modellarini tahlil qilish kabi masalalar tahlilga tortilgan.

Adabiy til taraqqiyoti, globallashuv sharoitida til qanday transformatsiyaga uchrashi masalalari Y.Odilov, N.Mahmudov, M.Ruzikulova, Z.Raufjonova, A.Hojiyev, B.Xolmuxamedov, Sh.Maxmaraimova, N.N.Bolisheva, M.Y.Kaplunova, M.Y.Golik, Y.B.Koryakov, V.M.Alpatov, L.K.Bayramova, Y.Z.Garipov, L.M.Muxaryamova³ kabi olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

социоллингвистики: Дисс. канд. фил. наук. – М., 2016; Словарь социоллингвистических терминов. – М.: Институт языкознания РАН, 2006. – 312 с.; Аврорин В.А. Языковая ситуация как предмет социоллингвистики. // Изв. СО АН СССР, сер. общ. наук, 1973, вып. 3, № 11. – М. – С. 7-11; Алпатов В.М. Социоллингвистическая ситуация в Японии XIX-XX вв. // Диахроническая социоллингвистика. – М., 1993. С. 104-120; Аюпова Л.Л. Социоллингвистика в Башкортостане. // Актуальные проблемы филологии. – Уфа, 1997. – С. 6-7; Баскаков А.Н. Социально-демографические и социоллингвистические факторы языковой ситуации в национальных регионах России. // Родной язык, 1994, № 1. – С. 6-8; Диахроническая социоллингвистика. – М.: Наука, 1993. – 204 с.; Журавлев В.К. Диахроническая социоллингвистика (предмет, задачи, проблемы). – М., 1993. – С. 3-20; Крысин Л.П. Социоллингвистическое исследование вариантов современного русского литературного языка: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – М.: МГУ, 1980. – 30 с.; Крысин Л.П. Функциональная социоллингвистика: статус, проблемы перспективы исследований. // Язык и общество в современной России и других странах. – М.: Тезариус, 2010. – С. 27-31; Крючкова Т.Б. К вопросу о методах социоллингвистических исследований. // Теоретические проблемы социальной лингвистики. – М., 1981; Пономаренко О.А., Кулагина С.Г. Социоллингвистический и коммуникативный аспекты билингвизма. // Исследование различных типов и жанров текста. – Сургут, 1999. – С. 80-82; Принципы и методы социоллингвистических исследований. – М.: Наука, 1989. – 196 с.; Трескова С.И. Социоллингвистические проблемы массовой коммуникации. – М., 1989. – 152 с.; Туманян Э.Г. Социоллингвистические факторы однотипных изменений в этнических языках народов бывшего СССР. // Социальная лингвистика в Российской Федерации (1992-1998). – М., 1998. – С. 33-34; Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социоллингвистику. – М.: ВШ, 1978. – 216 с.; Швейцер А.Д. Социальная дифференциация английского языка в США. – М., 1983.

³ Хожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг таракқиёти. III том. – Тошкент: Фан, 1991. – 132-б.; Холмухамедов Б. Ўзбек тилида лексемалашув: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2020; Одиллов Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг таракқиёти. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – 245 б.; Махмудов Н. Зиддият ва лисоний бирликда маъно таракқиёти. // Махмудов Н., Одиллов Ё. Сўз маъноси таракқиётисида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Академнашр, 2014. – 12-б.; Махмараймова Ш.Т. Луғавий бирликлар ўртасидаги эпидигматик муносабат. // Научно-практическая конференция. – Тошкент, 2021; Большеева Н.Н. Развитие языка в условиях глобализации: социально-философский аспект: Автореф. ... канд. философ. наук. – М., 2006; Каплунова М.Я. Языковая политика и функциональное развитие языков в КНР: Автореф. канд. филол. наук. – М., 2017. – 24 с.; Голик М.Я. Язык интернет–СМИ как отражение сознательного воздействия общества на язык в эпоху глобализации (на материале заимствованной лексики в английском, русском и китайском языках). // Вопросы филологии. № 3–4 (48). – М., 2014. – С. 142-152; Коряков Ю.Б. Языковая ситуация в Белоруссии и типология языковых ситуаций: Дисс. ... канд. фил. наук. – М., 2002; Алпатов В.М. История лингвистических учений. – М., 1999. – 251 с.; Байрамова Л.К. Столкновение смыслов языковых единиц на газетной полосе. // www.ksu.ru/science/news/ruslang/t40.htm; Гарипов Я.З. Тенденции национально-языкового развития. // Социоллингвистические исследования. 1989. – № 2. – С. 3-13; Гарипов Я.З. Функциональное развитие татарского языка как государственного. // Социоллингвистические проблемы функционирования государственных языков РТ: сб. научн. статей. – Казань: Татар, 2007. – С. 17-32; Мухарямова Л.М. Язык и языковые отношения как предмет политической науки: теория и методология анализа: Дисс. ... д-ра полит. наук. – М., 2004. – 406 с.; Рузикулова М.Ю., Рауфжонова З.Т. Глобаллашув даврида фан ва таълимнинг долзарб масалалари. // Молодой ученый, 2017. – № 4. 2 (138.2). – С. 44-52; Каравичева Т.В. Эволюция языка средств массовой информации в публикациях экономической и социально-правовой тематики: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2005; Дахиль В.С. Инновации в языке современных российских интернет-медиа. Международный научно-исследовательский журнал. – № 1 (115). Часть 4. – 2022.

Media tilining, shuningdek, mediamatnning xususiyatlari D.M.Teshabayeva, I.E.Toshaliyev, A.Abdusaidov, G.X.Bakiyeva, M.I.Israil, L.I.Tashmuhamedova, S.X.Shamaksudova, A.X.Mirzajonov, Y.R.Odilov, Sh.B.Usmanova, M.R.Artikova, Sh.Jabborova, N.B.Ataboev, A.O.Toleubayeva, H.D.Shifrin, T.G.Dobrosklonskaya va I.M.Shevelevskiy⁴ ning ishlarida tahlilga tortilgan. Tadqiqotlarda media tilining o'ziga xos jihatlari, zamonaviy tendentsiyasi, mediamatn yaratish xususiyatlari, tilning axborot yaratish va tarqatishdagi roli, manipulyatsiya, media tilining ekspressivligi va turli til vositalarining mediamatn yaratishdagi o'rni aniqlangan.

Gazeta tilining sotsiolingvistik tadqiqi I.P.Lisakova, R.M.Blakar, Ye.V.Vlasova, V.G.Kostomarov, A.M.Selishev, S.V.Mosheva⁵ kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda gazeta tilining sotsiolingvistik aspektida tadqiqi, gazeta-publitsistik uslubining tarixiy tamoyillari, reklama tilining sotsiolingvistik xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Biroq gazeta matnida til taraqqiyotining voqelanishini sotsiolingvistik yondashuv asosida tahlil etishga doir maxsus monografik ish bajarilgan emas.

⁴ Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. док. дисс. – Самарқанд, 2005; Mattheson D. Media Discourses: Analysing Media Texts. – London: Open University Press, 2005. – 224 p.; Добросклонская Т.Г. Медиадискурс как объект лингвистики и межкультурной коммуникации. // Вестник МГУ, 2006. – № 2. – С. 20–34; Montgomery M. Discourse of Broadcast News. A linguistic approach. – New York: Routledge, 2007. – 246; Шевелевский И.М. Информационно-аналитические тексты в деловом медиадискурсе (на материале онлайн-версий Российских СМИ): Дисс. ...канд. филол. наук. – Тверь, 2015. – 175 с.; Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. – Челябинск; ЧГИК, 2018. – 316 с.; Тешабаева Д.М. The Discours Analysis of Media Text // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2018. –№ 2. – P. 222–226; Shomaksudova S., Israil M. OAVda yozma matn. Nutq va munozara. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 180 b.; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот тили. – Тошкент, 2019. – 172 б.; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн. – Тошкент: Турон–Иқбол, 2019. – 208 б.; Тешабаева Д.М., Бакиева Г.Х., Исраил М.И., Тошмухамедова Л.И., Нуриддинова М.Ч. Журналистика. III жилд. Медиалингвистика ва тахрир. – Тошкент, 2019. – 548 б.; Мирзажонов А.Х. Современное понимание медиатекста в условиях конвергенции СМИ. // Global science and innovations 2020: Central Asia. – Нур-Султан, 2020. – С. 96–100.; Одилев Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг таракқиети. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – 245 б.; Усманова Ш.Б. Медиадискурса газета тили тенденциялари (Ўзбек ва инглиз тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2021. – 149 б.; Артикова М. Медиамаконда прецедентлик феноменининг лингвомаданий аспекти (Ўзбек ва испан газеталари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2022. – 123 б.; Toleubayeva A.O. Mediamakonda ma'no ko'chishining lingvokulturologik aspekti (qoraqalpoq, o'zbek va ingliz gazeta matnlari misolida). Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ...diss. – Nukus, 2024. -161 б.; Ataboyev N.B. Mediamatnlar diaxronik korpusida til rivojining empirik tahlil tamoyillari (ingliz va o'zbek gazetalari misolida). Filol. fan. doktori (DCs) ...diss. – Farg'ona, 2024. -233 б.

⁵ Лысакова И.П. Социоллингвистический анализ газеты. Дис. докт. филол. наук. – Москва, 1984. - 415 с.; Лысакова И.П. Язык газеты и типология прессы. Социоллингвистическое исследование. СПб, 2005. // http://medialing.spbu.ru/upload/files/file_1394528316_6843.pdf; Лысакова И.П. Социоллингвистическая интерпретация эволюции публицистического стиля (русская пресса 1917-1994) // Русский язык в переломное время: 1985-1995 гг. Выступления на VIII Международном конгрессе МАПРЯЛ. Munchen, 1996; Блакар Р.М. Язык как инструмент социальной власти // Психология влияния: хрестоматия / сост. А.В. Морозов. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 42-66 с.; Власова Е.В. Речевая агрессия в печатных СМИ. (На материале немецко- и русскоязычных газет 30-х и 90-х гг. XX века): дис. ... канд. филол.наук. – Саратов, 2005. – 219 с.; Костомаров В. Г. Языковой вкус эпохи: Из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. – М.: Педагогика-пресс, 1994. – 247 с. 13.Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе: Некоторые особенности языка соврем. газетной публицистики. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1971. – 267 с.; Селищев А.М. Язык революционной эпохи: Из наблюдений над русским языком (1917-1926). – 2-е изд., стер. – М.: УРСС, 2003. –248 с.; Мошова С.В. Социоллингвистический аспект текстов массмедиа (на материале русско- и англоязычных рекламных текстов). // Вестник НГУ. Серия. История, филология. 2013.Том 12. Выпуск 10. – С. 237-242.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I–2015–1–22 "Xorijiy tillar bo'yicha multimedia axborot texnologiyalari bazasini takomillashtirishga oid dastur va o'quv-uslubiy materiallar yaratish va nashr etish" bandi bilan bog'liq ravishda olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi tarixiy va zamonaviy tamoyillar asosida bosma media tilining til taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi asosiy sotsiolingvistik omillarini, tilining ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlar ta'sirida taraqqiyot dinamikasini, funksional-ekspressiv-baholovchi omillarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda til taraqqiyoti masalalarini sotsiolingvistik yondashuv asosida o'rganish;

media tili adabiy til taraqqiyotini namoyon qiluvchi vosita ekanligini yoritish;

til taraqqiyoti bosqichlarini tarixiy tamoyillar asosida aniqlash;

siyosiy leksikaning taraqqiyot dinamikasini aniqlash va uning turli ijtimoiy guruhlarda voqelanishini gazeta matni misolida yoritish;

til taraqqiyotida o'zlashmalarning rolini va mediamatnda voqelelanish xususiyatlarini hamda semantik transformatsiyaning til taraqqiyotidagi rolini aniqlash;

gazeta-publitsistik uslubida globallashtirish jarayonlarining tilga ta'siri namoyon bo'lishining ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini asoslash;

gazeta tilida til taraqqiyoti jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy tamoyillari bilan bog'liqligini dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida sho'ro davridagi "Қизил Ўзбекистон", "Совет Ўзбекистони", "Тошкент ҳақиқати", "Ёш ленинчи", "Правда Востока", "Комсомолец Узбекистана" "Советская культура", "Правда", "Комсомольская правда" davriy nashrlari va O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston ovozi", "Xalq so'zi", "Yangi O'zbekiston", "Правда Востока", gazeta.uz, yuz.uz, anhor.uz, president.uz, polito.uz, xz.uz, shosh.uz, izoh.uz, oliymahad.uz bosma va elektron nashrlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida bosma matbuot matnining sotsiolingvistik aspekti belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik tasvirlash, konseptual-derivatsion, semantik, sintez, tavsifiy, komponent, lingvostatistik, diskursiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistondagi til siyosati bilan bog‘liq bo‘lgan lingvistik vaziyatni yanada chuqur anglash imkonini beruvchi sotsiolingvistik omillar jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, demografik va madaniy omillarning tilga ta’siri, tezkor axborot almashinuvida til birliklarining voqelanish jarayonini ilk bor tadqiq qilish asnosida tilning barcha imkoniyatlarini o‘zida mujassam etgan gazeta matnining taraqqiyot tendensiyalari aniqlangan;

til taraqqiyotida mediamatn yaratish jarayoni, axborotni olish, saqlash, o‘zgartirish va uni translyatsiya qilish orqali tilning imkoniyatlaridan foydalanishda “*voqelik* → *vaziyat* → *mahorat*” triadasining til dinamik jarayoni hamda adabiy tilning barqarorligi va ijtimoiy-madaniy o‘ziga xosligini mustahkamlashda muhim omil sifatida xizmat qilishi asoslangan;

gazeta tilining diaxronik tahlili sotsiolingvistik omillarning, xususan, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda yuz bergan o‘zgarishlarning til taraqqiyotiga ta’siri asosida shakllanishi, leksik-uslubiy o‘zgarishlarni hamda gazeta matnini ochiq baholashga qaratilgan leksik vositalardan foydalanish tilni me’yorlashtirish hamda gazeta-publitsistik uslubining demokratlashuviga xizmat qilishi dalillangan;

gazeta matnida siyosiy leksika voqelanishining global siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi, barqaror, dinamik taraqqiyot natijasida ijtimoiy-siyosiy muhitga moslashuvchanlik imkoniyati tilning taraqqiyotida muhim o‘rin kasb etishi hamda til taraqqiyoti jarayoni xalq mentaliteti va urf-odatlar bilan bog‘liqligi, ushbu xususiyatlarning gazeta-publitsistik uslubida semantik transformatsiyasi masalasi, yangi metaforalarning shakllanishida ijtimoiy-madaniy omillarning roli aniqlangan;

gazeta matnida o‘zlashmalar voqelanishining axboriy qiymatni belgilashdagi o‘rni, yangi tushunchalarning til tizimidagi o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi, tilning xalqchilligi asosida auditoriya tomonidan oson idrok etishga yordam beruvchi universal hodisa hamda tilning taraqqiyot tamoyillarini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Til taraqqiyoti tahlilida sotsiolingvistik yondashuvning amaliy ahamiyati adabiy tilning ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar bilan o‘zaro ta’sirini inobatga olganligi sababli lingvistik tadqiqotlarning muhim va dolzarb jihati hisoblanadi. Til taraqqiyotining mediamatnda ifodasi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda tadqiqot ilmiy xulosalaridan Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2019-yilda nashr etilgan “Jurnalistika” 10 tomlik qo‘llanmasining “Medialingvistika va tahrir” nomli kitobi (3-jildi)da, “OAVda yozma matn, nutq va munozara” hamda “Notiqlik san’ati” nomli o‘quv qo‘llanmalarida foydalanilgan. Tadqiqotdagi nazariy xulosalar ushbu soha bo‘yicha o‘quv fanlaridan darslik, qo‘llanmalar hamda elektron lug‘atlarni yaratishda muhim

manba vazifasini o‘tagan, til taraqqiyotining mediamatnda voqelanishiga oid xulosalar tilshunoslikni yangi ilmiy tushunchalar bilan boyitishda asos bo‘lishi aniqlangan hamda til taraqqiyotidagi ijtimoiy xususiyatlarni belgilovchi omillar yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy hamda ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, tadqiqot xulosalari, taklif hamda tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, xulosalarda bayon qilingani, xulosalar samaradorligining metodlar orqali asoslangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati obyekt doirasiga oid muhim ilmiy xulosalar va fikr-mulohazalar medialingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, semiotika, lingvomadaniyatshunoslik, jurnalistika sohalariga oid tadqiqot muammolarini yoritishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan nazariy umumlashmalardan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Sotsiolingvistika”, “Media tili va uslubi”, “Madaniyatshunoslik” kabi fanlar bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarini, shuningdek, mazkur fanlar bo‘yicha ma’ruza va seminar materiallarini tayyorlashda amaliy manba vazifasini o‘tashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistondagi lingvistik vaziyatni chuqur anglash imkonini beruvchi sotsiolingvistik omillar jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, madaniy o‘zgarishlar konteksti tilning barcha imkoniyatlarini o‘zida mujassam etgan gazeta matnining tendensiyalari aniqlanishiga oid xulosalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzurida filologiya fanlari doktori, professor R.U.Madjidovanning 2020–2022-yillarda Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan FZ–2019062034 raqamli “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 2-iyuldagi 24/2143-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot materiallari mazkur loyiha bo‘yicha milliy-madaniy so‘zlar glossariysini yaratishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishiga erishilgan;

O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yonalish va vazifalarini hamda istiqboldagi yo‘nalishlarini belgilashga doir xulosalardan

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida filologiya fanlari doktori, professor G.I.Ergashevaning 2023–2024-yillarda amalga oshirilgan IL–662204405 “Eksperimental fonetik laboratoriya yaratish (xorijiy til misolida)” mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 4-iyuldagi 24/2148-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan modulda til taraqqiyotida mediamatn yaratish jarayoni, axborotni olish, saqlash, o‘zgartirish va uni translyatsiya qilish orqali tilning imkoniyatlaridan foydalanishda “*voqelik* → *vaziyat* → *mahorat*” triadasining til dinamik jarayoni hamda adabiy tilning barqarorligi va ijtimoiy-madaniy o‘ziga xosligining til o‘rganuvchilar lisoniy identivligini belgilashdagi imkoniyati, xususan, ularning fonetik kompetensiyasi takomillashuviga xizmat qilishi isbotlangan;

gazeta tilining diaxronik tahlili sotsiolingvistik omillarning, xususan, ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy sohalarda yuz bergan o‘zgarishlarning til taraqqiyotiga ta’siri asosida shakllanishi, leksik-stilistik o‘zgarishlar hamda gazeta matnini ochiq baholashga qaratilgan leksik vositalardan foydalanish tilni me’yorlashtirish hamda gazeta-publitsistik uslubining demokratlashuviga xizmat qilishi dalillanishiga oid ilmiy natijalaridan, dissertatsiya materiallaridagi sotsiolingvistik omillarning til taraqqiyotiga ta’siri tahlillaridan O‘zbekiston Zamonaviy jurnalistikasini rivojlantirish markazida Germaniyaning Deutsche Welle Academy va markaz direktori S.R.Sulaymonova tomonidan tuzilgan PA.BZ24AS.24.30.13 raqamli Grant Contractga muvofiq 01.04.2024–30.11.2024-yilda amalga oshirilayotgan “Media School Uzbekistan” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Zamonaviy jurnalistikasi rivojlantirish markazining 2024-yil 1-avgustdagi 45-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari loyiha doirasida mediamatnlardagi ijtimoiy-siyosiy leksika tarjimasida muqobillarni topishni o‘rgatuvchi multimediyaviy resurslar, tarqatma materiallar tayyorlanayotganida muhim manba vazifasini o‘tagan;

gazeta matnida siyosiy leksika voqelanishining global siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi hamda barqaror, dinamik rivojlanishi natijasida ijtimoiy-siyosiy muhitga moslashuvchanlik imkoniyati tilning taraqqiyotida muhim o‘rin kasb etishiga oid xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ–800-21 GR–381 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida tilshunoslikdagi kompyuter lingvistikasiga oid atamalarning, sotsiolingvistik omillarning leksik xususiyatlarini aniqlashda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 23-iyuldagi 03/2157-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyaning taklif va tavsiyalari moduldagi matnlarning, sotsiologik omillarning til taraqqiyoti tahlillarini izohlashda muhim manba vazifasini o'tashiga erishilgan;

gazeta matnida o'zlashmalar voqelanishining axboriy qiymatni belgilashdagi o'rni, yangi tushunchalarning til tizimidagi o'zgarishlarini yuzaga keltiruvchi, tilning xalqchilligi asosida auditoriya tomonidan oson idrok etishga yordam beruvchi universal hodisa hamda tilning taraqqiyot tamoyillarini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lishi isbotlanishiga oid ilmiy natijalaridan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent G.X.Xasanova 2023–2025-yillarda bajarayotgan AL–672205602 raqamli “Ko‘zi ojizlar uchun spelling audio dictionary” audio qo‘llanmasini yaratish” nomli amaliy loyihasi doirasida audio lug‘atdagi o'zlashmalar glossariysini tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining 2024-yil 29-iyuldagi 3/677-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari o'zlashmalarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish maqsadida loyiha doirasida audio resurslar, amaliy materiallar tayyorlanayotganida muhim manba vazifasini o'tashiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot 34 ta, jumladan, 23 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 67 ta ilmiy nashr chop etilgan, shundan 1 ta monografiya, 4 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 tasi respublika va 9 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 219 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, muhokamadan o'tkazish, natijalar, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Til taraqqiyotini sotsiolingvistik aspektida tadqiq qilishning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan dastlabki bobida sotsiolingvistika asoslari: tahlil va munosabat, sotsiolingvistik omillarning til taraqqiyotidagi roli hamda bosma media tilining sotsiolingvistik aspektida o‘rganish usullari tahlilga tortilgan.

Jamiyatda odamlar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy, tarixiy, madaniy va h.k. munosabatlar mavjudligi ularning yashash tarzida, faoliyatida, milliy an’analarida, xatti-harakati va, eng asosiysi, tilida o‘z aksini topadi. Olamdagi voqea-hodisalar, belgi tushunchalar, harakat va holatlar cheksiz bo‘lgani kabi ijtimoiy munosabatlar sifat va miqdor jihatidan turlichadir. Darhaqiqat, kishilik jamiyati mavjud ekan, insonlar o‘rtasida turli xil ijtimoiy munosabatlar bo‘ladi. “Shaxs – insonning sotsiallasuv mahsuli”⁶. Tabiiyki, bu munosabat, shubhasiz, tilda o‘z aksini topadi. Adabiy til ham bundan mustasno emas. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlar turli ko‘rinishlarda tilning barcha sathlarida o‘z ifoda shakllariga ega bo‘ladi. Zero, “Biz til tufayli sezgi muchalari bilan bilib bo‘lmaydigan narsalarni ham o‘rganamiz. Ko‘rinishi, shakli bor narsalarning aksi ongimizga o‘rnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat so‘z shaklida o‘zlashtiramiz. Xuddi shuningdek, mavjudotning ko‘rinmas ichki jihatlarini ham so‘z shaklida o‘zlashtiramiz va til vositasida o‘zgalarga tushuntiramiz”⁷.

Tadqiqotda o‘zbek OAV tilining shakllanish, rivojlanish va hozirgi holati sotsiolingvistika nuqtai nazaridan lingvistik tasvirlash, konseptual-derivatsion, semantik, sintez, tavsifiy, komponent, lingvostatistik, diskursiv tahlil usullar hamda sotsiolingvistik metodlaridan foydalangan holda tahlil etiladi. Zero, media tilining sotsiolingvistik aspektida tadqiqi:

a) jamiyatda hayot, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, qadriyatlar va madaniyatni aks ettiruvchi lingvistik vosita sifatida va ularning jamiyatga ta’sirini tahlil qilishga imkon beradi;

b) mediakontent jamoatchilik fikrini shakllantirishda hamda media til meyorlari va stereotiplariga ta’siri masalalarini qamrab oladi;

v) mediakommunikatsiyada til va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’sirini, amlidagi adabiy tilning taraqqiyotini, ijtimoiy va mafkuraviy e’tiqodlarni qanday aks ettirishini yoritishga imkon beradi;

g) media tilini ijtimoiy-madaniy kontekst mahsuli sifatida jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy voqeliklarini aks ettirishi hamda ijtimoiy omillarning tilga ta’siri “TIL SIYOSATI” masalalarini tahlil qilishiga qaratiladi.

⁶ Xojiyeva M.Y. O‘zbek tili so‘z birikmalarida shaxs tavsifi (substansial va sotsiopragmatik aspektlarda): Filol. fan. bo‘y. fals. dok. ... dis. avtoref. – Buxoro, 2023. – B. 63.

⁷ Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Extremum Press, 2010. – Б. 136.

Darhaqiqat, sotsiolingvistik aspekt doirasida media tilining holati, uning ustuvorliklari yoki, aksincha, undagi cheklanishlar, ya'ni tildan tashqari hodisalar xususidagi olimlar fikrlarining tahlili katta qiziqish uyg'otadi. Ta'kidlash lozimki, media tilining sotsiolingvistik aspektda tadqiqi axborot makonida til vositalarini voqelanishi, shuningdek, uning jamoatchilik fikriga ta'siri, ijtimoiy meyorlar va madaniy qadriyatlarni aks ettirishi mumkin bo'lgan ijtimoiy leksika, uslub va til meyorlari kabi turli xil lingvistik hodisalarni tahlil qilishning kuchli vositasidir. Zero, prof. D.M.Teshabayevaning fikricha, "... sotsiolingvistika tilning ommaviy kommunikatsiya jarayonida kommunikantlarning ijtimoiy xususiyatlari, muloqot vaziyatining xususiyatlari, aloqa kanali, axborot mazmuni va boshqa ijtimoiy omillarga bog'liq holda qanday modifikatsiyalarga uchrashini o'rganadi"⁸. Zero, til hodisalarining ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi dunyo tilshunoslari tomonidan asoslangan⁹. Biz ijtimoiy omil deganda, eng avvalo, insonlar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni ko'zda tutamiz. Demak, media tilini o'rganishda sotsiolingvistik yondashuv zamonaviy jamiyatdagi lisoniy hodisalarni tushunishning muhim vositasidir. U tilning OAVda qanday qo'llanilishini, shuningdek, jamoatchilik fikri va madaniyatiga qanday ta'sir qilishini yaxshiroq tushunishga yordam berishi mumkin. Shuningdek, medmakonda lisoniy vositalarni tahlil qilishga asoslangan holda so'z va iboralardan foydalanish axborot qiymatini oshirishga va auditoriya xatti-harakatlariga ta'sir qiladi.

"Sotsiolingvistik – tilni jamiyatga nisbatan o'rganishdir. Tilning sotsiologiyasi bu jamiyatni uning tilga bo'lgan munosabatida o'rganish. Agar birinchi berilgan ta'rifda sotsiolingvistikaning vazifasi ayrim lisoniy, universal yoki o'ziga xos faktlarga oydinlik kiritish bo'lsa, ikkinchisining maqsadi, aksincha, jamiyat haqidagi til ma'lumotlaridan foydalangan holda yangiliklarni bilib olishdir"¹⁰.

Darhaqiqat, sotsiolingvistik til va tafakkur munosabati, kommunikatsiya, ya'ni muloqot jarayonida tilning funksional ko'rinishlari kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Shuningdek, sotsiolingvistik faqat til hodisalarining tabiatini anglash bilan chegaralanib qolmaydi, u jamiyatdagi madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy-siyosiy masalalarni hal etish bilan ham uzviy bog'liq¹¹.

Sotsiolingvistik til hodisalarini tahlil qilish uchun muayyan tushunchalar va ularning majmuasidan iborat bo'ladi. Vaholanki, aynan shu termin va

⁸ Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол. фан. д-ри. дисс. – Т., 2012. – Б. 31.

⁹ Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол. фан. д-ри. дисс. – Т., 2012. – Б. 31.

¹⁰ Hudson R.A. Introduction to Sociolinguistics, 2nd ed. – CUP, 1996. – P. 126.

¹¹ Aliqulov Z., Boymirzaeva S. Sotsiolingvistik. Ma'ruzalar matni. – Samarqand: SamDU, 2009. – B. 102.

tushunchalar **TIL** va **JAMIYAT** o'rtasidagi munosabatlar, o'zgarishlar hamda o'zaro ta'sirini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan kelib chiqib, sotsiologiyalarga tilni ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilish va ijtimoiy-madaniy muhit kontekstida tilni chuqurroq tushunish imkonini berishiga sabab bo'ladi. "Sotsiuning ijtimoiy roli bilan uning o'ziga xos nutqining funksional uslubini bir planda ko'rsatish mumkin emas. Chunki bular ikki xil tabiatning o'ziga xos ko'rinishlari, xolos... biror tilning taraqqiyoti uning turli ijtimoiy sohalardagi ko'rinishlarida namoyon bo'ladi"¹².

Shahriyor Safarov va Tatyana Bushuylar jamiyat haqidagi fanlar nuqtayi nazaridan qaralsa, tilni takrorlaydigan boshqa biror bir tizim mavjud emasligini ta'kidlashadi va har qanday ijtimoiy hodisa xronologik jihatdan chegaralangan u insoniyat jamiyatida azaldan mavjud bo'lmagan va mangu davom etmagan. Har qanday ijtimoiy hodisa ma'lum hudud va chegarada mavjud bo'ladi. Masalan, fan va ishlab chiqarish o'z ichiga san'atni qamrab ololmaydi, til esa, ijtimoiy ongning barcha jihatlarini o'ziga qamray oladigan ijtimoiy hodisadir. Tilning globalligi, uning ijtimoiy hayot va ongning barcha jabhalariga kirib bora olishi, boshqa guruhlar, tabaqalardagi hodisalardan ustuvorligini ta'minlaydi¹³ deya ta'kidlaydilar.

Olimlar tilning taraqqiyoti ko'p hollarda jamiyatning ijtimoiy tarixidan mustaqil holda kuzatiladi va til madaniyati uchun ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, milliy ong, madaniy omillarning ta'siri, tilning ichki tizimiy o'zgarishlarining faolligi, meyorlashtirish siyosatining ta'sirchanligi katta ahamiyatga egadir¹⁴ deb hisoblaydilar.

Mediakommunikatsiya – auditoriyaga axborot va xabar uzatish jarayoni bo'lib, bu jarayonda bir inson til, belgilar va ramzlar yordamida axborotni boshqa insonga uzatadi, ikkinchisi esa, bu axborotni qabul qiladi va o'zlashtiradi. Ommaviy muloqot axborot va fikrlarni keng auditoriyaga yetkazishning eng samarali usullaridan biridir. U jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, jamoatchilik fikrini shakllantirishi mumkin.

Til siyosati ma'lum bir davlat yoki mintaqa kontekstiga bog'liq bo'lishi mumkin. Asosiy maqsadlardan biri – jamiyatdagi tilning o'ziga xosligi va milliyligini saqlagan holda uni himoya qilishdir. Bu ijtimoiy-madaniy o'ziga xoslikni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega. Til siyosati, shuningdek, til ta'limiga ko'maklashish va ta'lim resurslaridan foydalanishda til guruhlari tengligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

¹² Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши. Филол.ф.н....дисс. –Т., 2008. – Б. 27.

¹³ Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: Таҳлил методлари ва методологияси. Илмий нашр. – Т.: Фан, 2007. – Б. 22-23.


¹⁴ Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: Таҳлил методлари ва методологияси. Илмий нашр. – Т.: Фан, 2007. – Б. 58.

Gazeta matnini sotsiolingvistik tahlil qilishning asosiy jihatlaridan biri bu matn yaratiladigan va tarqatiladigan ijtimoiy-madaniy kontekstni o'rganish. Gazeta matnlari eng mashhur va keng tarqalgan kommunikatsiya vositalaridan biri bo'lib, sotsiolingvistik tahlillar uchun qimmatli ashyodir. Gazetada publitsistik uslubni sotsiolingvistik aspektda o'rganishning bir necha usullari mavjud bo'lib, ushbu usullardan biri – mediamatnlarini tahlil qilishdir.

T.G.Dobrosklonskayaning ta'kidlashicha, mediamatnlarini o'rganishda nafaqat ularning mazmunini, balki shakli, tuzilishi, konteksti va boshqalarni ham inobatga olish zarur va bu katta hajmdagi axborotni tahlil qilishning murakkabligini, yangi usul va texnologiyalarni ishlab chiqish zaruratini va boshqalarni keltirib chiqaradi¹⁵.

Mediamatnlarni tahlil qilish uchun tadqiqotchilar kontent-tahlil, diskursiv tahlil, lingvistik tahlil va boshqa turli usullardan foydalanadilar (1-rasmga qarang):

Zamonaviy va kommunikatsiyaviy tadqiqotlar tobora murakkablashib bormoqda va ularni hal qilish tahlil miqdoriy va sifatiiy usullarining uyg'unligini talab qiladi. Bu tadqiqotchilarga xabarlarining mazmuni (ularning qanchalik muntazam uzatilishi va jamoatchilik takliflari)ni aniqlash, kommunikator uchun axborotning ahamiyatini (uni taqdim etish kontekstida va tartibida) baholash, shuningdek, (tasavvurga, nuqtayi nazarga va dalillarga ko'ra) qaysi jihatlari yaxshi yoki yomon, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlashdir.



Kontent	• verbal va vizual tahlil
Diskursiv	• mediamatnda ma'no yaratish mexanizmi
Lingvistik	• til tuzilmalari va ularning funksiyalari

1-rasm. Mediamatnlarni tahlil qilish usullari

Kontent-tahlil so'zlar, gaplar, mavzular va boshqalar kabi ba'zi til unsurlarining miqdori va sifatini tadqiq etishga imkon beradi. Kontent-tahlil (mazmunning tahlili) matnlarni lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish

¹⁵ Добросклонская Т.Г. Медиадискурс как объект лингвистики и межкультурной коммуникации. // Вестник МГУ, 2006. – № 2. – С. 30.

usullaridan biridir¹⁶. A.V. Semenovaning “Контент-анализ в социологии: методологические новации” nomli maqolasida yozilishicha: “Kommunikatsiya bo‘yicha tadqiqotlar sohasidagi tadqiqot vazifalarining tobora murakkablashib borishi, miqdoriy va sifatiy usullarni chog‘ishtirishning aniq afzalliklari tadqiqotchilarni mantiqiy ravishda kontent-tahlilni kiritish va shu asosda ushbu usulning yangi modifikatsiyalarini ishlab chiqish tadqiqotchilarga yanada murakkab muammolarni hal qilish, muammo maydonini kengaytirish imkoniyatini, tadqiqot sohasi, o‘rganilayotgan hodisalarning tabiati to‘g‘risida sifat jihatidan yangi, chuqurroq va xilma-xil xulosalarga kelish imkoniyatlarini beradi”¹⁷.

Shuni ta’kidlash lozimki, publitsistik matnni kontent-tahlil qilishning asosiy afzalliklaridan biri sifatida matn orqali aniq va ishonarli ma’lumotlarni olish va mediada aks ettirilgan voqeiy axborot to‘g‘risida obyektiv xulosalar chiqarish imkonini beruvchi miqdoriy yondashuvdir.

Diskursiv tahlil sotsiolingvistikada va tilshunoslikda asosiy tadqiqot usullaridan biridir. Bu tilni kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rganish va tildan foydalanish bilan bog‘liq ijtimoiy, siyosiy va madaniy aspektlarni tahlil qilish imkonini beradi. Diskursiv tahlil, o‘z navbatida, media matnlarida ma’no yaratish mexanizmlarini o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

N.Q.Turniyazovning fikricha, “Semantik yaxlitlik tushunchasi, albatta, muhim ahamiyat kasb etadi, zero, ma’noda g‘alilik bo‘lsa, turli xil chalkashliklar sodir bo‘lishi mumkin... Matnning kommunikativ tahlili, mantiqiy-semantik tahlildan farqli ravishda, biryo‘la bir necha mikro-, hatto makromatnlarni qamrab ola oladi. Kommunikativ tahlil, asosan, matnning bajarayotgan vazifasiga tayanadi. Buning dalilini xabar ifodasini berishga xoslangan gazeta materiallarida ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, texnik tavsiyalar, anketalar ham bunga misol bo‘la oladi. Ularning barchasi muayyan bir vazifa bajarilishini nazarda tutadi”¹⁸.

Darhaqiqat, media tilini o‘rganishning samarali usullaridan biri diskursiv tahlil bo‘lib, bunday tahlil usuli **VOQEA / HODISA → AXBOROT → KANAL → AUDITORIYA** ijtimoiy-madaniy tizimlar doirasida yaratilgan mediamatnlar tahliliga asoslanadi.

Media tilini diskursiv tahlil qilish zamonaviy mediamakonda til va kommunikatsiyani tanqidiy o‘rganish uchun muhim vositadir. Mazkur yondashuv mediamatnlar jamoatchilik fikrini qanday shakllantirishi va ularda

¹⁶ Пашинян И.А. Контент-анализ как метод исследования: достоинства и ограничения. // <https://cyberleninka.ru/article/n/kontent-analiz-kak-metod-issledovaniya-dostoinstva-i-ogranicheniya>.

¹⁷ Семенова А.В. Контент-анализ в социологии: методологические новации. // Вестник Вятского государственного университета, 2011. – М. – С. 11-15.

¹⁸ Турниязов Н.К. Синтактик семантика ва матн шаклланиши хақида баъзи мулохазалар. // Хорижий филология, № 1, 2019. – Б. 11.

hokimiyat tuzilmalari va siyosiy manfaatlar qanday aks etishini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Lingvistik tahlilning muhim jihati uning obyektivligi va ilmiy metodologiyasidir. Tilshunoslar empirik ma'lumotlar va mantiqiy tahlil yordamida tilni tizimli o'rganishga intiladilar. Bu tilni va uning qo'llanilishini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

OAV tilining lingvistik tahlilida mazkur usullardan foydalaniladi: 1. Mediamatnda alohida lisoniy birliklar joylashgan kontekstni o'rganish uchun ishlatiladigan distributiv tahlil usuli. 2. Sintaktik tuzilmalarni o'rganish va tavsiflashga, shu jumladan, gapdagi so'zlar o'rtasidagi bog'liqlik munosabatlarini aniqlashga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri komponent-tahlil qilish usuli. 3. Bir gapni boshqasiga aylantirish orqali hodisalarni sintaktik darajada o'rganish maqsadida ishlatiladigan transformatsiyaviy tahlil usuli. Ushbu usul bir ifoda shaklidan boshqasiga o'tish jarayonida yuzaga keladigan turli xil tuzilmaviy va semantik o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi¹⁹.

Media tilini sotsiolingvistik jihatdan o'rganish jamiyatning lisoniy va madaniy jihatlarini tushunish uchun muhim vazifadir. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqotchilar mediamatnlarni tahlil qilish, tajribaviy tadqiqotlar va mediamatnlarni yaratish jarayonini kuzatish kabi turli usullardan foydalanishlari mumkin. Media tilini sotsiolingvistik jihatdan o'rganish siyosat, ta'lim va media kabi turli sohalarda foydali bo'lishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, media tilining ta'rifi uni o'rganish aspekti va yo'nalishiga bog'liq. Har bir tadqiqot sohasida media tili turli nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Masalan, funksional-pragmatik yondashuv doirasida mediadiskurs va media tili axborotni uzatish va auditoriyaga ta'sir qilish bilan bog'liq kommunikativ vazifalarni amalga oshirish vositasi sifatida ko'riladi.

L.N.Fedotova OAVning sotsiolingvistik aspektida izlanish olib borishi natijasida quyidagi xulosaga keladi: "OAV tili taraqqiyotidagi tamoyil va hodisalarni tahlil etishda professionallar bahosi boy manba bo'lib xizmat qiladi".

«Globallashuv kontekstida gazeta-publitsistik uslubining sotsiolingvistik aspektda tadqiqi» deb nomlangan ikkinchi bobda globallashuv kontekstida media tili va uslubi xususiyatlari, gazeta-publitsistik uslubining diskursiv tahlili hamda gazeta-publitsistik uslubining janriy xususiyatlari tadqiq qilingan.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida gazeta-publitsistik uslubiga oid tadqiqotlar jamiyatning moddiy-ma'naviy qadriyatlari ko'zgusi sifatida turli milliy-madaniy o'ziga xosligi masalalarini yechish an'anaviy lisoniy tahlil

¹⁹ Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. – М.: Флинта, Наука, 2005. – 416 с.

usullari bilan birgalikda zamonaviy yangi uslub va yondashuvlarni taqozo etmoqda. D.M. Teshabayevaning izohlashicha, “gazeta-publitsistik uslubida ishontirish o‘quvchi yoki tinglovchiga emotsional ta’sir ko‘rsatish vositasida amalga oshiriladi. Muallif yetkazilayotgan axborotga o‘z munosabatini bildiribgina qolmay, muayyan ijtimoiy guruh – partiya, harakat va boshqalarning fikrini ham ifodalaydi”²⁰.

Gazeta-publitsistik uslubining mohiyatini to‘liq yoritishdan oldin “publitsistik uslub” borasida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Anglashiladiki, “...har qanday funksional uslub uchun an’anaviy so‘z qo‘llash, muayyan lisoniy hodisalarning doimiyligiga xosdir”²¹.

Ma’lumki, publitsistik uslub (lotin tilidan *publicus* ~ jamoaviy) gazetalarda, ommaviy kommunikatsiya vositalarida, jamoaviy (ommaviy) nutqlarda ishlatiladigan adabiy tilning tarixan rivojlangan vazifaviy turi sifatida tushuniladi. U ko‘pincha gazeta, jurnal maqolalarida, televideniye va radio dasturlarida, adabiy-tanqidiy asarlarda, ijtimoiy-siyosiy nutqlarda qo‘llaniladi. Mazkur uslubning maqsadi – yangi axborotni yetkazish, ommaviy adresatga ta’sir ko‘rsatish, o‘quvchini biror narsaga ishontirishga intilish. Ta’sir vazifasi publitsistik uslubning so‘zlashuv uslubi kabi ommabop va badiiy uslub kabi hissiy bo‘lishini talab qiladi²².

O‘zbek gazeta tili tadqiqi asoschilaridan biri A.Abdusaidov publitsistik uslub borasida quyidagini ta’kidlagan: “... bir vaqtning o‘zida ham konservativlik, ham harakatchanlik xususiyatiga ega ekani, ya’ni, bir tomondan, yetarli miqdorda qoliplar, terminlar uchrasa, ikkinchi tomondan, o‘quvchini ishontirish, unga ta’sir etish maqsadida yangidan-yangi til vositalari qo‘llaniladi”²³. Darhaqiqat, gazeta-publitsistik uslubining leksik tizimi ochiq, bu uning og‘zaki nutq belgilari (ya’ni, so‘zlashuv leksik birliklari bilan) bilan faol o‘zaro ta’sirini ifodalaydi²⁴.

Tadqiqotlarning katta qismi publitsistik diskursni tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning har birida uning turli xususiyatlarini o‘rganishga harakat qilinadi. Zero, “gazeta-publitsistik uslubiga oid materiallarning kommunikativ-diskursiv tahlili natijasida mediamatnning yaratilishi publitsistik uslub ko‘rinishlari bilan bog‘liqligi aniqlanadi”²⁵. Ta’kidlash lozimki, publitsistik uslub turli OAV orqali auditoriyaga ta’sir qilishda sohaviy

²⁰ Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол. фан. д-ри. дисс. – Т., 2012. – Б. 106.

²¹ Лингвистический энциклопедический словарь. // Под ред. В.Н. Ярцева. – М., 1990. – 682 с.

²² https://vuzlit.com/453678/teoreticheskie_osnovy_gazetno_publitsisticheskoy_rechi

²³ Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол.фан. док. дис. – Самарқанд, 2005. – В. 37.

²⁴ Петрова Е.А. Лексика американских и британских газет в аспекте языка города. Автор. дисс...канд. филол. наук. – Курск, 2009. – 22 с.

²⁵ Усманова Ш.А. Медиадискурса газета тили тенденциялари (Ўзбек ва инглиз тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Т., 2021. – В. 43.

terminologiya, ijtimoiy-siyosiy leksika hamda badiiy-uslubiy vositalar yordamida ekspressivlikni ta'minlash orqali auditoriyaga ta'sir etish tabiatining mavjudligi bilan belgilanadi.

O'zbek publitsistikasida gazeta janrlarining tasniflanishi o'zaro farqli, ya'ni o'zbek gazetalarida qat'iy mezonlar asosida ajratilgan janrlar guruhi (axboriy, tahliliy hamda badiiy-publitsistik) mavjud. Ekspressiv vositalarning ommaviy ma'lum qilingan voqea-hodisaning nutq birligi orqali ifoda etilishi bo'lgani bois, uni publitsistikaning barcha janrlarida kuzatish mumkin. Zero, publitsistik uslubda matnning standartligi va ekspressivligi konstruktiv tamoyil hisoblanadi. Ekspressiya – mediamatnning belgilangan unsuri bo'lib, muallif yondashuvi va bahosini bildiradi²⁶.

Rus tilshunos olimi M.Y.Kazakning fikricha, gazeta-publitsistik uslubi OAV tilining bir turi sifatida adabiy til taraqqiyotini aks ettiruvchi va milliy tilning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha dinamik jarayonlarni o'z ichiga oladi²⁷. Darhaqiqat, gazeta-publitsistik uslubi, OAV tilining ajralmas qismi sifatida, milliy tillarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu uslub, o'zining lingvistik xususiyatlari bilan, ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirish orqali tilning rivojlanishiga va taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning bilan birga, gazeta publitsistikasi ekspressivlik va standartlik xususiyatlari bilan belgilanadigan jurnalistik janr bo'lib, ushbu turdagi materiallarda muallif-jurnalist tomonidan dolzarb muammolar, mushohada va tahlillar bayon etiladi. Gazeta-publitsistik uslubi: axboriy, tahliliy va badiiy-publitsistik janrlarda standart va ekspressiv vositalardan foydalanishda, albatta, adabiy til meyorlari asosida shakllangan til birliklari qo'llaniladi.

Gazeta-publitsistik uslubining yana bir asosiy jihatlari – u tezkorlik va aniqlikni talab qilinadi, bu esa tilning yangi tushunchalar voqelanishiga imkon beradi. Jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga javoban tilni yangi terminlar bilan boyitilishi mumkin. Bu holat tilning boyligini oshirib, uning ekspressivlik salohiyatini oshirishga sabab bo'ladi. Albatta, bu gazeta janrlari bilan bog'liq hodisa sanaladi.

Gazeta-publitsistik nutqining sotsiolingvistik aspekti til, jamiyat va kommunikatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi. Til axborotni uzatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va auditoriyaga ta'sir qilish vositasiga aylanmoqda. Gazeta-publitsistik diskursining sotsiolingvistik aspektlarini o'rganish "... til va jamiyatning o'zaro ta'sirini yaxshiroq tushunishga, shuningdek, uning ijtimoiy voqelikning shakllanishi va o'zgarishidagi rolini

²⁶ Усмонова У.Б. Публицистик матннинг ўзига хос хусусиятлари. // Finland, Helsinki international scientific online conference, 2024. – В. 53.

²⁷ Казак М.Е. Язык газеты. – Белгород, 2012. – С. 44-78.

yaxshiroq baholashga”²⁸ imkon beradi. Gazeta-publitsistik diskursi jamiyatdagi o‘z maqsadlariga erishish uchun turli xil lisoniy strategiyalardan foydalanadi. Ushbu strategiyalarga axborot berish, ishonirish, manipulyatsiya qilish, baholash va tanqid qilish kiradi. Hissiy tus berish, uslubiy san’atlardan foydalanish, o‘quvchini undash va unga murojaat qilish kabi lisoniy vositalar gazeta-publitsistik diskursida auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish va uning fikrini shakllantirish uchun faol qo‘llaniladi.

Gazeta matnlari jamoatchilik fikrini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular, murakkab ijtimoiy-siyosiy masalalarni soddalashtirib, ommaga tushunarli qilib taqdim etadi. Natijada, til faqatgina aloqa vositasi emas, balki fikrlar, g‘oyalar va madaniy qadriyatlarni uzatish vositasiga aylanadi. Gazeta tili nafaqat tilning leksik boyligini oshirishga, balki uning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini ham mustahkamlashga qaratilganligi til taraqqiyotida til siyosatinnig o‘rnini ko‘ratadi.

Mazkur dissertatsiyada biz til, jamiyat va kommunikatsiyaning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etib, gazeta-publitsistik diskursining sotsiolingvistik aspektiga murojaat qildik. Zero, o‘zbek va rus bosma media tilini sotsiolingvistik kontekstda o‘rganish ilmiy tadqiqotlarning dolzarb, qiziqarli va muhim sohasidir. Ushbu yondashuv ijtimoiy jarayonlarning media tilining diaxronik, leksik-semantik va uslubiy xususiyatlariga ta’sirining hamda uning taraqqiyot bosqichining tadqiqiga qaratilgan.

Ishning uchinchi bobi «**Gazeta-publitsistik uslubining tarixiy taraqqiyot tamoyillari: sotsiolingvistik yondashuv**» deb atalgan. Ushbu bobda bosma media tilining diaxronik tadqiqi ya’ni, sho‘ro davrida gazeta-publitsistik uslubining lingvistik xususiyatlari va Qayta qurish davrida gazeta-publitsistik uslubining til taraqqiyoti va mustaqillik yillarida gazeta-publitsistik uslubining sotsiolingvistik tahlili amalga oshirilgan.

Gazeta o‘z taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganligi bois, uning tili va uslubi ham doimo jamiyat bilan hamohang tarzda o‘zgarishlarga uchragan. Bu tilning dinamik hodisa ekanligining yana bir isboti sifatida qarashga undaydi. Ma’lumki, tilning shakllanishi va rivojlanishi tarixiy taraqqiyot bilan bo‘lib, bu tabiiy va muqarrar jarayon hisoblanadi. Til dinamikasi ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy jarayon, iqtisodiyot, madaniyatning rivoji bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari, umuman olganda, turkiy tillarning evolyutsiyasi doirasida ko‘rib chiqiladi. O‘zbek tili o‘zining tarixiy rivojlanishi davomida bir nechta asosiy bosqichlardan o‘tgan, har bir bosqich ma’lum madaniy va siyosiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq.

²⁸ Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.: Просвещение, 1983. – С. 170.

O‘zbek matbuotining paydo bo‘lishi va rivojlanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda O‘zbekiston hududi Rossiya imperiyasining bir qismi sifatida turli madaniy va siyosiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Gazetalar milliy uyg‘onish, ma‘rifatparvarlik harakati va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarda muhim rol o‘ynagan. Ta‘kidlash joizki, Turkistonda chorizm va sho‘ro mustamlakachilik tizimi davridagi matbuot tilining shakllanishini, publitsistik uslub xususiyatlari, o‘ziga xosliklari va umumiy jihatlarini tizimli o‘rganish ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Biz ushbu bobda o‘zbek gazetasi tili taraqqiyotinnig mustamlaka va mustaqillik davrlarini tahlilga tortganmiz. 1920-yillardan boshlab, O‘zSSR tashkil topganidan keyin, matbuot sohasida yangi bosqich boshlandi. “O‘zbekiston ovozi”, “Qizil O‘zbekiston” kabi gazetalar siyosiy, ijtimoiy va madaniy mavzularni yoritish bilan birga, maorif va ilm-fanning rivojlanishiga ham hissa qo‘shdi. Ta‘kidlash lozimki, sho‘ro davrida o‘zbek tilining yozuvi bir necha bor o‘zgardi. Dastlabki yillarda o‘zbek tili arab alifbosidan fors-tojik alifbosiga, keyin lotin alifbosiga va nihoyat 1940-yilda kirill alifbosiga o‘tkazildi. Bu o‘zgarishlar tilimizning, shu jumladan, matbuot tilining ham yozma an‘analarini sezilarli darajada o‘zgartirdi.

Insoniyat taraqqiyotida til voqelikni bilishning, ijtimoiy borliqni idrok etishning ham muhim vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Natijada, insonning kommunikativ va bilishga oid faoliyatida yagona bir vosita – tildan foydalanish umumbashariy taraqqiyotning muvaffaqiyatini ta‘minladi ²⁹. O‘zbek matbuotining vaqtli paydo bo‘lishi adabiy til rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Vaqtli matbuot o‘zbek tilining taraqqiy ettirishga katta hissa qo‘shdi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, gazeta-publitsistik uslubining ko‘rinishlari ijtimoiy taraqqiyotning qadimgi davrlaridayoq paydo bo‘la boshlaganini qadimgi notiqqlarning nutqlarida namoyon bo‘lganligida ko‘rishimiz mumkin.

Sho‘ro davri gazeta tili asosan standartlik va ta‘sirchanlikka asoslangan bo‘lib, sobiq sho‘ro tuzumi standartlariga javob beradigan kommunistik tadbirlar, sotsialistik iqtisodiyot va boshqalar yoritilgan. Buni quyidagi standart jumalalarda ko‘rish mumkin: *“kommunistik mehnat kollektivi”*; *“o‘shish suratlari”*; *boshlang‘ich tashkilot*; *“brigda pudrati”*; *“puxta tanlov”*; *“zarur vazifa”*; *muhim vazifalar*; *“partiya chaqirig‘i”*; *“partiya tashkiloti”*; *“tinchlik va do‘stlik uchun”*; *“mehnat zarbdori”*; *“muhim topshiriq”*; *“konkret ishlar”* va h.k.

Shuningdek, sho‘ro davri matbuotida: *“Пролетарият”* – mehnatkash sinf, ayniqsa, fabrika va zavod ishchilari; *“Коммунизм”* – mumtoz jamiyat

²⁹ Бушуй Т., Сафаров Т. Тил қурилиши: Таҳлил методлари ва методологияси. илмий-нашр. – Т.: Фан, 2007. – Б. 20.

qurish maqsadida barcha mulk umumlashtiriladigan ideal jamiyatning tuzilishi; “Социализм” – ishlab chiqarish vositalarining davlat yoki jamoa tomonidan boshqarilishi asosida qurilgan ijtimoiy va iqtisodiy tuzum; “Колхоз” – kollektiv (жамоа) xo‘jalik, dehqonlarning birgalikda yerda ishlashi; “Совхоз” – davlat xo‘jaligi, asosan, qishloq xo‘jaligida ishlatilgan; “Партия” – siyosiy partiya, ayniqsa kommunistik partiya kabi tushunchalarni qo‘llash faol bo‘lgan. Masalan, gazeta matnida “Бригада” termini faol muomalada bo‘lib, ushbu tushuncha ko‘plab sohalarda ishlatilgan va uning ma’nosi kontekstga qarab farqlangan. Biroq, “brigada” termini kichik guruh yoki jamoa a’zolarini anglatgan bo‘lib, bu guruh muayyan vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan. Шунингдек, davr muhiti bilan va ijtimoiy-siyosiy voqelikni aks ettiruvchi tushunchalar kuzatiladi: “Беш йиллик”; “Ишлаб чиқариш плани”; “Йиллик план”; “Социалистик мусобақа”; “Совет кишилари”; “Совет халқи”; “Маҳаллий советлар” va h.k.

Masalan, “Заводда **ишлаб чиқариш** планини ўз вақтида бажарилиши ишчиларнинг кўнглини кўтарилиши ва уларни янада янги зафарларга чорлади”; “Бизнинг коллективимиз социалистик мусобақа голиби бўлиш учун ҳаракат қилишяпти”; “**Етти йиллик плани** бажариш учун **кураш кучларимизни** ҳам қачонгидан ҳам фаолроқ сафарбар қилишни, партиянинг бутун ташкилотчилик ва тарбия ишларини янада юксак даражага кўтаришни талаб қилади” (“Қизил Ўзбекистон”. 03.10.1958) va h.k.

Rus tilida chop etiladigan gazeta matnida ham jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini mafkuralashtirish yanada kuchaydi. O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar siyosiy tus olib, ular batamom KPSS mafkurasiga xizmat qilishga buysundirildi. Siyosiy rahbariyat butun sovet jamiyatida sotsialistik musobaqani keng quloch yoydirib, kommuistik mehnat uchun harakat qilishga, “kommuistik qurilishning yangi yutuqlarini “buyuk sanalar orqali nishonlash”ga da’vat etdi³⁰. Bu o‘z o‘rnida gazeta matnida voqealashiga sabab bo‘ldi. “Командующему Кавказским фронтом генерал-лейтенанту тов. КОЗЛОВУ. Командующему Черноморским флотом вице-адмиралу ОКТЯБРЬСКОМУ. Поздравляю Вас с победой войск над врагом и освобождением города и крепости Керчь и города Федосии от немецкого-фашистских захватчиков” (“Комсомольская правда”. 31.12.1941). Новогоднее поздравление советскому народу”; “С трудовой победой!”;

³⁰ Исқандаров И. Совет Ўзбекистони саноатининг 50 йил мобайнидаги ривож. – Т.: Ўзбекистон, 1974. – Б.21.

Gazeta sarlavhalarida organlar nomlari keltirilishi odatiy hol bo'lgan: “СССР ички ишлар органлари”; “Давлат хавфсизлиги комитети”; “Совет Армияси”; “Ички ишлар министрлиги”; “Комитет” va h.k.

Sho'ro davridagi siyosiy vaziyatni yorituvchi mavzularda o'sha davr so'z, so'z birikmalari va siyosiy leksika qo'llanilgan: “Коммунистик партия”; “комсомол”; “коммунизм”; “Министрлар Совети”; “Ёзувчилар союзи”; “Марказий Комитет”; “марксча-ленинча дунёқараиш”; “марксизм – ленинизм идеялари”; “Социалистик Меҳнат Қаҳрамони”; “Олий Совет депутаты”; “Бригада бошлиғи”; “Советлар республикаси”; “Совет халқи”; “Пленум”, КПСС делегацияси”; “Олий Совети Президиуми”; “СССР Министрлар Совети” va h.k.

Gazeta matniga murojaat qilamiz. “Совет Ўзбекистони” gazetasida “Буюк қудратли куч” sarlavhasi ostida berilgan maqoladan parcha keltiramiz:

“Биз марксизм-ленинизм ер юзидаги юз миллионлаб кишиларнинг фикр-туйғларида ҳукумрон бўлиб қолган замонавий, энг илгор ва ҳаётнинг та’лимоти сифатида планетанинг ҳамма қит’аларида кенг халқ оммаси онгига чуқурроқ сингиб, дунёда энг қудратли моддий кучга айланаётган даврда яшамоқдамиз. Улуг Октябрь социалистик революциясининг зоявий байроғи бўлган марксизм-ленинизм синфий ва миллий зулмга қарши, социализм ва коммунизм галабаси учун курашда барча мамлакатлар меҳнаткашларнинг йўлчи юлдузи бўлиб қолди” (“Совет Ўзбекистони” 02.04.1968) va h.k.

Ushbu misolda gazeta-publitsistik uslubining asosiy vazifasi marksizm-leninizm g'oyalarini aks ettirish va ularni omma ongiga singdirish bo'lgan. Ma'lumki, marksizm-leninizm g'oyasi – siyosiy va iqtisodiy nazariyalar majmui hisoblanadi. Bu nazariya asosan ishchi sinfning kapitalistik tizimga qarshi kurashi va proletariat diktaturasini o'rnatish g'oyalariga tayanganligi va gazetada keng targ'ib qilinganligi sababli, *g'oyaviy bayroq; milliy zulmga qarshi; mehnatkashlarning yo'lchi yulduzi* kabi ekspressiv vositalar orqali matn axborotning ta'sirchanligiga erishilgan.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qo'llanilishi davr talabi bo'lib, bu mafkuraviy vazifani bajargan. Deyarli har bir materialda bu holatni kuzatish mumkin: *КПСС Марказий Комитети район ва шаҳар газеталарига бевосита раҳбарлик қилишга ... шаҳар ва район партия комитетлари биринчи секретарларининг зиммасига юкланган* (“Совет Ўзбекистони”. 1950-1954); *“Ҳозир Совет Иттифоқи якка эмас. У билан бир қаторда интернационализмнинг байроғи остида 1-Май куни улуг...”*; *“Бунинг натижасида тўрт мамлакат ташқи ишлар министрларининг Берлин кенгаши чақирилди”* (“Совет Ўзбекистони”. 30.11.1990) va h.k.

Shuning bilan birga qisqartmalarning faollashuvi kuzatiladi. Bu qisqartmalar ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bogʻliq edi: “РСДРП(б)”; “РКП(б)”; “ВКП(б)”; “ВЛКСМ”, “КПСС”, “СССР”; “ЎзТАГ” va h.k. Masalan, “СССР Олий Совети номига мурожаатнома қабул қилинди”; “ВЛКСМ МК пленуми минбаридан ҳам ҳалол сўзлаган”; “КПСС Марказий Комитетининг июнь Пленуми қарорлари қишлоқ меҳнаткашларини янги меҳнат зафарларига илҳомлантирмоқда”.

Shunisi eʼtiborga loyiq-ki, bu qisqartmalar asosan rus tushunchalarini oʻz ichiga olgan va oʻzbek tilida qisqartmalar rus tilida qanday boʻlsa, shundayligicha qoʻllanilgan. Masalan, “СССР” abbreviaturasi rus tilidagi toʻliq maʼnosi “Союз Советских Социалистических Республик” boʻlib, oʻzbek tilida “Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi” deb yuritilgan hamda Sovet Ittifoqi davlatining rasmiy nomi sifatida qoʻllanilgan.

“ВЛКСМ” abbreviaturasi rus tilida toʻliq “Всесоюзный Ленинский коммунистический союз молодёжи” tushunchasining qisqartmasi boʻlib, oʻzbekchaga tarjima qilinganda “Butunittifoq Leninchi kommunistik yoshlar ittifoqi” degan maʼnoni anglatadi. Bu tashkilot Sovet Ittifoqi davrida yoshlarni kommunistik qoʻyalar asosida tarbiyalash va ularni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotga jalb qilish maqsadida tashkil etilgan. VLKSM, asosan, 14 yoshdan 28 yoshgacha boʻlgan yoshlarni oʻz ichiga olgan va ularga turli madaniy, sport va taʼlim tadbirlari, shuningdek, jamiyatdagi faol ishtirok etish uchun keng imkoniyatlarni yaratib bergan. Davrning mafkuraviy taʼsiri natijasida VLKSM aʼzolari yoshlar orasida kommunistik mafkurani targʻib qilish, oʻz aʼzolarini mehnat va mudofaa tayyorgarligiga jalb qilish, shuningdek, madaniy va ilmiy faoliyatlarga koʻmaklashish kabi vazifalarni bajargan. Ular, shuningdek, yoshlarni siyosiy tarbiyalashda muhim rol oʻynagan va Kommunistik Partiya bilan yaqin hamkorlik qilgan.

Yana bir tushunchaga murojaat qilamiz. “Социалистик система” “Социалистик” siyosiy termini “sotsializm” tushunchasidan kelib chiqqan boʻlib, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga nisbatan ishlatilgan boʻlib, bu yerda ishlab chiqarish vositalari jamoa tomonidan nazorat qilinishini anglatgan. Ushbu tushunchalar “sotsial” termini lotincha “socius” soʻzidan olingan boʻlib, “hamkor”, “sharik” yoki “hamjamiyat” degan maʼnolarni anglatadi. Bu termin keng maʼnoda ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning tuzilishi va insonlar oʻrtasidagi oʻzaro harakatlarni koʻrsatish uchun ishlatiladi. Hozirda ham “sotsial” tushunchasi koʻplab sohalarda, jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarga oid tadqiqotlarda qoʻllaniladi.

Sovet tizimi davrida “sotsializm” terminining ahamiyati katta boʻlib, bu shoʻro davrining mafkuraviy va siyosiy jarayonining asosini tashkil etgan. Zero, sotsializm ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sifatida jamiyatning barcha aʼzolari

uchun tenglik va adolatga asoslangan bo‘lishini ko‘zlagan. Sovet Ittifoqi va unga mansub respublikalarda sotsializmni amalga oshirish maqsadida ko‘plab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirilgan. Bu, o‘z navbatida, ushbu terminning matbuotda qo‘llanilish muntazamligini ko‘rsatadi. Masalan, “*Октябрь социалистик*”; “*социалистик система*” va h.k. O‘zbek tilida – *ik* qo‘shimchasi bilan yasalgan bo‘lib, bu uni sifatga aylantiradi. Bu qo‘shimcha obyektning sifatini yoki biror bir narsaga mansubligini ko‘rsatadi.

Rus tilida: “*Советский народ*”; “*Совет Министров СССР*”; “*Верховный Совет СССР*”; “*Центральный Комитет партии*”; “*Отечественный народный фронт*”; “*Коммунистический союз молодёжи*”; “*XXIV съезд КПСС*”; “*Центральный комитет ВЛКСМ*”; “*Комитет одобрил позицию правительства* va h.k. Ushbu davr gazeta sarlavhalarida ham terminlarni voqelanishi kuzatiladi: “*В Политбюро ЦК КПСС*”; “*Партия говорит и показывает!*”; “*ВЛКСМ – сердце молодежи!*” va h.k.

Sovet hukumati ma‘lum bir mafkuraviy maqsadlarga erishish uchun til islohotlarini amalga oshirdi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, bu islohotlar doirasida o‘zbek tilining lug‘at boyligi va grammatikasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Rus tilidan o‘zlashmalar soni ortdi va yangi tushunchalar va so‘zlar hisobiga o‘zbek tili leksikasi boyib bordi: “*leksiya*”; “*direktor*”; “*prinsip*”; “*rayon*”; “*miting*”; “*oblast*”; “*plan*”; “*konferensiya*”; “*texnika*”, “*mashina*”, “*reaktor*”; “*teleskop*”; “*antenna*”; “*kolxoz*”; “*sovхоз*”; “*rejissyor*”; “*komsomol*”; “*kran*”; “*avtobus*”, “*seyalka*”, “*agrotexnika*”, “*imperializm*”, “*kosmik fazo*”, “*quyosh sistemasi*”, “*sovet fani va texnikasi*”, “*astronomiya*”, “*observatoriya*”, “*fotografik astrometriya*”, “*laboratoriya*”, “*fanlar kandidati*” va h.k. “**Комсомол** карахтлик, ёшларни бутунлай назорат остидан чиқариб юборган босқични ортда қолдириб, **фаол позицияга** ўта бошлади” va h.k.

Shuning bilan birga mavjud leksikani yangisiga o‘zgartirilishi kuzatiladi: “*Калинин ноҳиясидаги “Партия XXI съезди совхозида ҳам шу “Вилоят комсомол конференцияларининг куни бўлиб ўтди*” (“Ёш Ленинчи”). Ushbu misolda “*Viloyat*” leksemasi “*oblast*” so‘zining o‘rniga qo‘lanilgan bo‘lib, sho‘ro davrida “*oblast*” so‘zi rus tilida ma‘muriy-hududiy birlikni anglatadi. Bu termin Sovet Ittifoqining ma‘muriy tuzilmasida muhim o‘rin tutgan va asosan viloyat darajasidagi administrativ birlikni bildirgan. Rus tilida bu so‘z hozirda ham ma‘muriy-hududiy birlik sifatida ishlatilib kelinmoqda. O‘zbek tilida “*Viloyat*” so‘zi fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “*mamlakatning bir qismi*” yoki “*hudud*”ni anglatadi. O‘zbek tilida va ko‘plab boshqa turkiy tillar kabi bu leksema ma‘muriy-hududiy birlikni anglatadi hamda viloyat, odatda, bir nechta tumanlardan iborat bo‘lib, o‘zining ma‘muriy markaziga

egadir. Shuningdek, sarlavhalarda **ekspressiv vosita sifatida** shiorlarning qoʻllanilishida kuzatiladi: “Коммунистларча ишлайлик ва яшайлик!”; “Коммунистик меҳнат галабаси сари!”; “Равнақ топ, совет Болтиқ бўйи!” “Биз сизлар билан биргамиз, Конголик қадрдонлар!” va h.k.

Shoʻro davridagi gazeta maqolalarida vatanparvarlik, mehnatkashlik gʻoyalari ilgari surilgan va ular quyidagi misolda yaqqol koʻzga tashlanadi: “Polvon yeng shimaradi” sarlavhasi ostidagi maqolada “Tashabusning tugʻilishi. Oiladagi tortishuv. Polvonning arizasi. Bir kunda ikki norma. Otaning ikkinchi kasbi” kabi soʻz birikmalari berilgan.

Ekspressiv-taʼsirchan tabiatli nutqiy qoliplar hamda turli xil uslubiy boʻyoqdor leksika hamda iboralar va maʼno koʻchish hodisasidan foydalanilgan:

“Жонажон ўлкада кезади баҳор, экишга тайёрлан, ўртоқ пахтакор!”;

“Минбардан эшитилган овозлар”;

“Буюк қалб эгаси” va h.k.

“Мажбурият олдингми, бажар!”

“Қалби қайноқ қорақалпоқ халқи азалдан меҳнаткаш. Унинг учун ҳаёт уфқлари фақат Октябрь инқилобидан кейин кенг очилди. Ҳар бир юмушни ўз вақтида бажаришга одатланиб қолган бу аҳил халқ Совет ҳокимияти йилларида ўлкани гуллашиб яшнатди” (“Совет Ўзбекистони”. 02.04.1952) va h.k.

Oʻzbek matbuoti sobiq SSSRning rasmiy tilida, yaʼni rus tilida chop etilgan. Oʻzbekistonda chop etilgan rus tilidagi gazetalar, oʻsha davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotini yoritgan. Gazetalar nafaqat mahalliy aholi, yaʼni oʻzbek va rus millatiga mansub kishilar orasida ham ommabop boʻlgan. Ularning tili va uslubi oʻzbek gazetolari kabi oʻsha davrning ideologiyasi va madaniyatini aks ettirgan. Buni gazeta sarlavhalaridan ham kuzatish mumkin: “Первоочередная партийная задача!”; “Октябрьское воскресенье народов”; “Водный транспорт должен победить”; “О партийном хозяйстве и задачах парторганизации Узбекистана. Доклад тов. Цехера на IV пленуме ЦККП(б)Уз”; “Наведем большевистский порядок в партийном хозяйстве” (“Правда Востока”. 1935–1940).

Sovetlar mamlakatining barcha qaram subyektlarida kechgan davlat apparatini mahalliyashtirish, masalan, Ukrainada “ukrainlashtirish”, Qozogʻistonda “qozoqlashtirish”, Gruziyada “gruzinlashtirish”, Oʻzbekistonda “oʻzbeklashtirish” siyosati olib borildi. Oʻzbekiston SSRda ham davlat apparatini “mahalliyashtirish” davlat, jamoat va xoʻjalik apparatiga mahalliy millat vakillarini keng jalb etishdan, ish yuritishda oʻzbek tili va boshqa

mahalliy tillarni joriy qilishdan iborat bo‘ldi³¹. Bu esa, o‘z o‘rnida, gazeta tilida realiyalarni voqelanishiga sabab bo‘ldi. Gazeta asta-sekin o‘zbek jamiyatining hayotini yoritishni boshladi. Ushbu gazetalarda o‘zbek realiyalar voqealanganligi kuzatiladi:

“Рахмат тебе, Ленин! Спасибо тебе, родная партия!. И весь народ Узбекистана от всего сердца говорит: - Рахмат! Спасибо! (Советская культура. 02.07.1957); Какими судьбами? Дионис, здравствуй, дорогой! Два человека в холле гостиницы “Наманган” бросились друг другу в объятия”; “Шауре дали роль”; “Встречи в Самарканде” (“Правда Востока”. 1960 -1970) ва х.к. Bu sarlavhalarda ham o‘z aksini topdi: “Совхоз “САМАРКАНД”. Снова Хашар” ; “Здравствуй, это я! Муса!”

Gazeta matning ekspressivligi auditoriyaga murojaatda, modal va undovlarning qo‘llanishilishida kuzatiladi: *“Жонажон ўлкада кезади бахор, экишга тайёрлан, ўртоқ пахтакор!” (Тошкент хақиқати. 18.03.1955) va h.k.*

Qayta qurish davrida o‘zbek gazetasining tili va uslubi ko‘p jihatdan siyosiy va ijtimoiy vaziyatga bog‘liq edi. Qayta qurish, butun sobiq sho‘ro ittifoqi singari, OAVda, shu jumladan, o‘zbek gazetalarida lisoniy-uslubiy o‘zgarishlarga olib keldi.

1980-yillarning oxiri – 1990-yillarning boshlariga to‘g‘ri keladigan qayta qurish davrida o‘zbek jurnalistikasi o‘sha davrda sobiq Sovet Ittifoqida sodir bo‘lgan muhim o‘zgarishlar va voqealarni aks ettirdi. Bu davr siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, mafkuraviy tamoyillarni qayta ko‘rib chiqish va mamlakat kelajagi haqida ochiq bahslar bilan ajralib turardi. Shu bilan birga, eski tizim voqealarining asta-sekinlik bilan yangi ko‘rinishda berilishi kuzatila boshlandi. Matbuotda ko‘proq muhokama va tanqidiy materiallar paydo bo‘lishiga hamda davlat siyosatiga, iqtisodiy muammolarga va ijtimoiy masalalar ochiq muhokamalarga qo‘yilishi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Oldingi ijtimoiy-siyosiy leksikaning va undagi terminlarning faolligi sezilarli darajada boshlandi. O‘zbek va rus tillarida ba‘zi bir siyosiy tushunchalar iste‘moldan chiqib ketish jarayoni kuzatildi. Ularning deyarli barcha sarlavhalarda voqelanishi kuzatildi: *“КПСС Марказий Комитетиде учрашув”; “КПСС етакчиси ва СССР раҳбари нутқи”; “КПСС МКнинг Апрель пленуми совет жамияти ҳаётидан”; “КПССнинг навбатдаги XXVII съездини чақириш, унга тайёргарлик кўриш ва ўтказиш борасида”; “Партия иқтисодий сиёсати” (“Совет Ўзбекистони”; “Ёш Ленинчи” gazetalaridan).*

³¹ Рашидов О. Туркистон асрида совет ҳокимиятининг миллий сиёсати. // Илмий хабарнома, АДУ, 2017, № 1.

90-yillarning boshlarida mamlakatda yuz berayotgan voqealar adabiy tilga o‘z ta‘sirini o‘tkaza boshladi. Siyosiy jarayonlarning matbuotda yoritilishi yangi siyosiy terminlarning voqelanishiga sabab bo‘ldi: “*Qurollanish poygasi*”; “*keskin burilish*”; “*shahdam qadamlar*”; “*siyosat bu demokratiya*”; “*demokratiyada keskin burilish*”; “*qayta qurishda odillik*”, “*siyosiy yo‘sin*”; “*oshkoralik va tanqid*”; “*mafkuraviy faoliyat*” va h.k.

Gazeta matniga murojaat qilamiz: “... **ўта қайта қуриш** фразеологияси заиф чиқди. Ана шу фразеологияга **партиявий зарба** берилганлигини, зиёлиларнинг қандайдир бир қисми, айниқса ёшлар **қайта қуришга зарба** деб қабул қилганликларини яшириб ўтирмаймиз” (“Совет Ўзбекистони”. 18.01.1988); “Юз бераётган воқеалар тўғрисида **ўйга толаркансан**, ташвиш уйғотаётган биринчи нарса, бу **мафкуравий фаолиятнинг ҳолатидир**” (“Совет Ўзбекистони”. 05.02.1991); “Ўзбекистонда **сиёсий ошкoralik** ҳар бир инсоннинг фикр ва сўз эркинлигини таъминлашда муҳим қадамдир. Бу янгиланишлар **ўзбек жамиятининг демократлашуви** йўлидаги интилишларнинг намунасидир” (“Совет Ўзбекистони”. 05.02.1988) va h.k.

Ko‘rib turganimizdek, 1990-yillar O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan xalqaro munosabatlar sohasida juda ko‘plab yangi tushuncha va terminlarni o‘z ichiga olgan muhim davr bo‘ldi. Bu davrda ko‘plab xalqaro munosabatlarni ifodalovchi terminlarning o‘zbek tiliga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Ba‘zilarining izohlariga murojaat qilamiz:

“*Demokratiya* – siyosiy tizimning shakllanishi va rivojlanishiga taalluqli tushuncha bo‘lib, ushbu tushuncha o‘zbek tiliga asosan rus tili orqali kirib kelgan. Lug‘aviy ma‘nosiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu termin yunon tilidagi “*demos*” (xalq) va “*kratos*” (hokimiyat) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “*xalq hokimiyati*” degan ma‘noni anglatadi. Sovet Ittifoqi davrida rus tili va madaniyatining kuchli ta‘siri ostida ko‘plab g‘arbiy va demokratik tushunchalar o‘zbek tiliga kirib kelgan va, shu jumladan, “*demokratiya*” termini ham shu davrda ommalashgan va matbuotda faol qo‘llanilishiga sabab bo‘ldi. “*Demokratiya*” termini o‘zbek tilida – *lash*, – *lashuv* qo‘shimchalari orqali yangi ma‘no kasb etganligini kuzatish mumkin: “**Demokratiyalash** – *qayta qurishning mohiyati, sotsializm mohiyatidir*” (“Sovet O‘zbekistoni”. 05.02.1988); “*Endilikda partiya iqtisodiy islohot va demokratiyalashning yangi sharoitida siyosiy avangard vazifasini chinakamiga bajarishi mumkin*” (“Sovet O‘zbekistoni”. 05.02.1988); “**Demokratiya bu o‘zboshimchalik emas**” (“Sovet O‘zbekistoni”. 07.01.1990) va h.k.

O‘zbek tilida “**oshkoralik**” termini ochiqlik, shaffoflik ma‘nosini anglatadi va “*oshkor*” so‘zidan yasalgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “oshkor” so‘zining ma‘nosi quyidagicha izohlangan: 1. Hammaga ma‘lum,

ko‘rinib turgan, ayon; ochiq-oydin. 2. Yashirmasdan, ro‘yirost; oshkora³². O‘zbek tiliga rus tilidan “*glasnost*” terminidan kalkalash usulida kirib kelgan. Oshkoralik Sovet Ittifoqida siyosiy hayotda katta o‘zgarishlarga olib keldi va sobiq Sovet respublikalarida demokratik islohotlarga yo‘l ochishi bilan bog‘liq tushuncha hisoblanadi. Bu termin qayta qurish siyosati doirasida, oshkoralik davlat organlarining faoliyatiga oid ma‘lumotlarni jamoatchilikka oshkor etishni va muhokama qilish, fuqarolarni hukumat qarorlarini tanqid qilishga va muhokama qilishga undash maqsadidagi bu siyosat jamoatchilik nazoratini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida amalga oshirilgan. Misollarga murojaat qilamiz: “*Odamlar ishonchi... . Bunday sharaftga faqat ish, oshkoralik va so‘z birligiga erishilgan taqdirdagina erishish mumkin*” (“Sovet O‘zbekistoni”. 25.04.1989); “*Hozir oshkoralik va demokratik yondashuvlarni boshqarishning iqtisodiy metodlarini joriy etishga yordam berishi lozim*”; “*Oshkoralik va prinsipiiallik ruhida munozara boshlandi*” (“Sovet O‘zbekistoni”. 14.01.1988) va h.k.

Asta-sekin iqtisodiyot sohasida ham yangi iqtisodiy terminlarning faollashuvi kuzatildi: “*kredit*”; “*omonatlar mablag‘lari*”; “*iqtisodiy normativlar*”; “*banklarning yangi sistemasi*”; “*o‘z-o‘zini pul bilan ta‘minlash*”; “*iqtisodiy yorib kirish*”; “*iqtisodiy metodlar*”; “*xo‘jalik hisob munosabatlari*”; “*natura va qiymat munosabatlari*”; “*ulgurji narx*”; “*xarid narxi*”; “*chakana narx*” va h.k. Shuningdek, asta-sekin iqtisodiyot sohasida “*кооперация*” – “*hamkorlik*”, “*акционерное общество*” – “*aksiyadorlik jamiyati*”, “*инвестиция*” – “*sarmooya*” kabi kalkalash orqali o‘zlashgan terminlar ham kirib keldi. Bular O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida qo‘llanilgan.

Qayta qurish davrida o‘zbek matbuotida jurnalistlar o‘z fikrlarini erkin ifodalashlariga imkon berilganligi sababli, gazeta-publitsistik uslubida o‘ziga xos o‘zgarishlar yuz berdi. Jurnalistlar gazeta tilining ta‘sirchanligiga ko‘p e‘tibor qarata boshladilar. Gazeta-publitsistik uslubida an‘anaviy standartlikdan ko‘ra ko‘proq ekspressiv vositalar kuzatildi: masalan, “*Куруқ тухматга қолганимдан сўнг ўз номимдан узком партия Марказий Комитетига ва Ўзбекистон Халқ назорати комитети раиси номига корхонадаги хақиқий аҳвол баён қилинган ариза ёздим*”; “*Ҳозир эса, дастлабки ниҳоллар ҳам пайдо бўлди. Назаримда, конкрет натижани қуйидагича таърифлаб беришимиз мумкин: халқаро вазиятни яхшилаш, соғломлаштиришининг реал жараёни бошланди*” (“Совет Ўзбекистони”. 18.04.1989) va h.k. Shuning bilan birga, gazetalarda ijtimoiy muammolar,

³² <https://izoh.uz/uz/word/oshkor>

korruptsiya, ekologiya va boshqa jamoatchilikni qiziqtirgan masalalarni yoritishga qaratildi.

O'zbek gazetalarida qayta qurish davrida O'zbekistonda kriminal vaziyatni yoritishda turli til vositalaridan foydalanilgan. Bu vaqt mobaynida jurnalistlar kriminal holatlarni ochiqchasiga va aniq faktlar bilan tasvirlashga harakat qilganlar. Masalan, "jinoyat olami"; "jinoiy avtoritetlar"; "reket"; "jinoiy to'da"; "qora bozor"; "mafia", "reket", "yollanma qotillar"; "firibgarlik" va h.k. Misollariga muraajaat qilaMiz: "Бунинг устига, СССРнинг барча теле ва радио каналларида **“ўзбек мафияси”** акс этган лавҳалар тинимсиз айланиб ётган бўлса. Мавжланиб-мавжланиб, тўлқинланиб-тўлқинланиб келаётган **фитнанинг** охири беш ой эмас, бир йил эмас, беш йил давомида ҳам кўринмаса..." ("Совет Ўзбекистони". 11.08.1988) va h.k.

Shuning bilan birga, matn ekspressivligi orqali o'quvchini diqqatini tortishga qaratilgan kabi kirish so'zlar va so'z birikmalari iste'molga kirib keldi: "қарабсизки", "хайрият", "лўнда қилиб" va х.к. **“Қарабсизки, сиз ҳам куймайди, кабоб ҳам. Яъни бир томондан маҳсулот исрофгарчилигига барҳам берилган бўлса, иккинчи томондан Фрунзе номли Колхоз ҳам, “Дўстлик” колхози ҳам фойда кўрмоқда”; “Хайриятки, Ўзбекистон Республикасини мустақил давлат деб эълон қилиниши ва жумҳуриятимиз Президентининг тинимсиз сай-ҳаракатлари эвазига ўлкамиз худудидаги бутун ер ости бойликлари, шу жумладан, олтин ва кумушни ҳам четга олиб чиқиб кетилишига батамом чек куйилди”; “Лўнда қилиб айтадиган бўлсак, шуни таъкидлаш керакки, Ўзбекистон ташқи дунё ҳамкорлиги, ўзаро иқтисодий алоқаларни янада кучайтириш...”** (“Ўзбекистон овози”. 1992-1995) va h.k.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, mustaqillikdan keyingi davrda gazeta tili orqali yangi davrning shukuhi aks eta boshladi. Tilga "mustaqil"; "o'lka"; "taraqqiyot" kabi birikmalar matnga o'zgacha rux berdi. Bu holat, ayniqsa, gazeta sarlavhalarida faollashdi:

“Ўзбекистон – мустақил мамлакат!”;

“Ўзбекистон – миллатлараро ва фуқаролараро тотувлик ўлкаси!”;

“Мустақиллик – муқаддас калом, озодлик энг тотли сўз!;

“Ўзбекистон – тараққиётга юз тутган Ватан!” va h.k.

Mustaqillikning ilk yillarida "Ўзбекистон компартияси"; "Ўзбекистон ССР", "Биринчи секретарь" kabi siyosiy nomni anglatuvchi tushunchalarning o'rniga "Ўзбекистон Республикаси"; "Президент" terminlari kirib keldi. Masalan, "Ўзбекистон Республикаси Президенти

Ислом Каримов 17-декабрь кунин Россиянинг ...” (“Халқ сўзи”. 18.12.1993); “Президентимиз ташаббуси билан...” va h.k.

Sobiq SSSR davrida qo‘llanilgan “*Ўзбекистон ССР*” tushunchasi “*Ўзбекистон Республикаси*” tushunchasiga o‘zgartirildi hamda uning sinonimi sifatida “*Жумхурият*” atamasi muomalaga kiritildi va hozirda ham ba’zida ifoda etilmoqda.

Mazkur tushunchalarning gazeta matnida voqelanishiga misollar keltiramiz: “*Ўзбекистон Республикасининг мустақиллиги тан олинмоқда*”; “*Республиканинг маъмурий-худудий тuzилишига доир масалаларни ҳал қилиш тартиби тўғрисида*”; “*Республикамизда амалга оширилаётган ишлар ...*” va h.k. *Жумхуриятимиз тарихида эсда қоладиган кун – Ўзбекистон Президентлигига сайлов тобора яқинлашмоқда*”; “*Жумхуриятимизнинг мустақил деб эълон қилинганлиги ҳамма қатори мени ҳам қувонтирди. Бироқ оғир шароитда мустақил жумхуриятни бошқарадиган Президент ўта тадбиркор, етти ўлчаб бир кесадиган, халқнинг дард-у нолишини биладиган, онгли киши бўлиши керак*”; “*Жумхурият*” имиз учун 1991-йил саодатли келди” va h.k.

“*Mustaqillik*” so‘zi “*Istiqlol*” so‘zi bilan sinonim sifatida qo‘llanilishi kuzatildi. “*Mustaqillik*” – “*mustaqil*” so‘zidan – *lik* qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali yasalgan.

Gazeta matniga murojaat qilamiz: “*Mustaqillik*” leksemasining voqelanishi: “*Мустақиллик, ҳурлик, бировларга қарам бўлмаслик...*”; “*Мустақиллик туфайли Ўзбекистон халқаро миқёсда ўзини танитиш, айни чоғда халқаро ҳуқуқ меъёрлари асосида жаҳондаги барча давлатлар билан тенг ҳамкорлик қилиш имкониятини қўлга киритди*” va х.к.

“*Istiqlol*” leksemasining voqelanishi: “*Ҳеч шубҳасиз, истиқлол йилларида юртимизда янги давлат ва жамият қуриш йўлида тарихий ишлар амалга оширилди, мард ва олийжаноб халқимизнинг ..*”; “*Истиқлол бизга ўз тақдиримизни ўз қўлимизга олиш имконини берди*”; “*Истиқлол фарзанди эканлигимиз, шундай гўзал даврда тугилиб, яратилаётган кенг имкониятларидан фойдаланиш бахтига муяссар...*” (“*Ўзбекистон овози*”. 16.04.1994) va h.k.

Tilda biror so‘zning paydo bo‘lishi yoki tildan chiqib ketishi u mansub bo‘lgan jamiyatdagi o‘zgarishlarga bog‘liqligini ta’kidlagan holda, tilimizga yangi tushunchalarning kirib kelishining nazorati til siyosati bilan hodisa ekanligini mustaqillikning ilk yillaridan ko‘rishimiz mumkin. OAV orqali o‘zlashgan so‘zlarni yangi tushunchalar bilan o‘zbekchalashtirildi. Masalan, “*телевизор*” – “*оунай жаҳон*”; “*газета*” – “*ро‘знота*”; “*самолёт*” – “*таууора*”; “*аэропорт*” – “*таууорагоҳ*” kabilar shular jumlasidandir: “**OYNAI JAHON**”DA KO‘RING!”; “*... ойнаи жаҳонда кўриниш*

бермоқда”; **“Ойнаи жаҳонда ҳам кир ювиш кукуни тарғиботида “Мукаммал табассум бўлса, мураккаб доғлар билинмайди”, деган жумла жуда узоқ айланди”**³³; **“Рўзномамизнинг ўтган йил 5 декабрь сонидан юқоридаги сарлавҳа остидан мақола чоп этилган бўлиб, унда Беруний районидаги қўйларни бўрдоқига боқиш ва қоракўлча олиш комплекси қурилиши чўзилиб кетаётгани, шунингдек озуқа базасини мустаҳкамлаш учун суғориладиган майдонлар ажратилмаётгани танқид қилинган эди”** (“Ўзбекистон овози”. 04.01.1992) va h.k.

Hozirda ushbu tushunchalar ma’naviyatimizdagi asosiy tushunchalardan biriga aylandi hamda **“Ozodlik”**; **“Milliy o‘zlik”** tushunchalar bilan birga qo‘llaniladi: **“Миллий ўзликни англаш орқали, халқимиз мустақилликни қўлга киритди, унинг бебаҳо неъмат эканлигини англади”**; **“Бугун Ўзбекистонда илгари содир бўлмаган воқеликлар амалга ошмоқда, чуқур ўзгаришлар бизнинг ҳаётимизга ҳам шиддат билан кириб келмоқда”**; **“Бугун биз озод ва обод, осойишта ва мустақил ватанда яшамоқдамиз”** (“Ўзбекистон Овози”. 18.11.1995)

Shuning bilan birga, gazeta matnida **“мустақиллик”**; **“хурлик”**; **“озодлик”**; **“тараққиёт”**; **“пойдевор”**; **“истиқбол”**; **“орият”**; **“садоқат”**; **“осойишталик”**, **“тотувлик”** kabi leksemalar paydo bo‘ldi va ularning voqelanishi faollashdi. Masalan: **“Ўзбекистоннинг келажаги яхшилик пойдеворида қурилмоғи шарт. Чунки фақат яхшилик боқий яшайди”** va h.k. **“Истиқбол – қулф, интизом унинг калитидир! Биз интизом деганда милициянинг калтаги, казо-казоларнинг дўқ-пўписалари, очик эшикларнинг ёпилишини назарда тутмаймиз. Интизом инсоннинг инсонга, эл-юртга, қонунларга, масъулиятга, тарих ва давр олдидаги бурчга, мажбуриятга ҳурматидир”**.

Gazeta matnida diniy leksemalarning qo‘llanilishi faollashganini kuzatish mumkin: **“Аллоҳ таолонинг бизга ато этган энг улуг неъматидир”**; **“Бу фаровон, тўкин кун кечирини учун якка-ю ягона, тўғри, ақл-идрокли, имон-эътиқодли йўлдир. Бу йўлда хато қилиш мустақилликни бой бериш билан баробардир!”** (“Ўзбекистон овози”. 24.03.1993); **“Зеро, миллат севгиси ва эъзози қадар улуг мукофот йўқдур. Бу мукофотга сазовор бўлишнинг бирдан-бир йўли – ўзга дин, ўзга миллатни таҳқирламаслик”**; **“Ўзбекистон – инсон камолоти каъбаси, даргоҳидир!”** va h.k. “Ka’ba” Islom dinidagi eng muqaddas joy hisoblanadi va musulmonlarning haj vazifasini ado etish joyi sifatida tan olingan. Izohli lug‘atda “1. Musulmonlarning Makkadagi ziyorat qiladigan, ibodat qiladigan muqaddas joyi. 2. Shaxs yoki joyni Ka’baga nisbatlaydi; eng muqaddas, aziz narsaga

³³ <https://yuz.uz/news/tabassum-ham-mukammal-boladimi>

nisbatan qo‘llanadi. Masalan, *Duogo‘yim, Ka‘bam – onam omonmi?; To ko‘rguncha Ka‘bam – otam, xayr endi. Malikayi ayyor; Ko‘ktoshga borish kerak. Boshqa yo‘l yo‘q. Ko‘ktosh – biz uchun Ka‘ba!; Netay, Ka‘bam, mozorim bo‘lsa yurtim, Unga men bor-u yo‘g‘imni buyurdim*”³⁴. Ushbu misolda *joy, makon, vatan, ona yurtni* Ka‘baga nisbatlanganini kuzatiladi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi «**Zamonaviy til taraqqiyotining sotsiolingvistik tavsifi (ijtimoiy-siyosiy gazetalar matni misolida)**» deb nomlangan. Ushbu bobda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy diskursda til taraqqiyoti tasnifi, til taraqqiyotida yangi ijtimoiy-siyosiy metaforalar, o‘zlashmalar til taraqqiyotidagi muhim omil таҳлил қилинган ва gazeta matnining til taraqqiyotida tutgan o‘rni borasida so‘rovnoma amalga oshirilgan va natijalari tahlil qilingan.

Media tilining ijtimoiy-madaniy aspekti muhim va ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinadi. Mediamatnlar nafaqat madaniy va ijtimoiy kontekstlarni aks ettiradi, balki ularga ta‘sir qilishi mumkin, bu esa, media tilini o‘rganishni madaniy xususiyatlarni tushunish va insonlar o‘rtasidagi muloqot uchun muhim masalaga aylantiradi. Ma‘lumki, til tizimida leksika eng nozik element hisoblanadi. Ta‘kidlash lozimki, muayyan mamlakatda ijtimoiy, siyosiy hayotning turli sohalarida qanchalik keng ko‘lamli o‘zgarishlar sodir bo‘lsa, uning rivojlanishining har bir bosqichida uning leksik tarkibidi shunchalik faol o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, ijtimoiy-siyosiy gazetolari siyosat, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat, ilm-fan, rasmiy xujjatlar va dunyo yangiliklari rubrikalaridan iborat. Ushbu turdagi gazetalarning yana bir muhim jihati, ularda ijtimoiy-siyosiy leksikaning faollashuvidir.

A.Yusupov: “... siyosiy matnlarni bizni har tomonlama o‘rab turuvchi axborot manbaidir. Biz ro‘znoma, jurnal va yangiliklar saytlarini o‘qiymiz, televizor ko‘ramiz, radio eshitamiz. Ommaviy axborot vositalari har kuni bizning mamlakatimiz va boshqa davlatlarning siyosiy hayotidagi turli xabarlarni yoritadilar” degan fikrni keltiradi³⁵. Tahlillar zamonaviy til taraqqiyotiga keng ta‘sir qiladigan leksika bu ijtimoiy-siyosiy leksikadir.

Ba‘zi tadqiqotchilar ijtimoiy-siyosiy lug‘atni keng kontekstda, jumladan, iqtisodiyot, diplomatiya va madaniyat bilan bog‘liq leksik birliklarni ko‘rib chiqadilar. Ularning fikricha, bu birliklar davlat siyosatining turli sohalardagi yo‘nalishlarini aks ettiradi. Siyosiy leksika ijtimoiy hayotning ko‘plab sohalari bilan chambarchas aloqada bo‘lib, davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy strategiyalaridagi o‘zgarishlarga lingvistik munosabatni shakllantiradi.

³⁴ <https://izoh.uz/uz/word/>

³⁵ Юсупов А. Ижтимоий-сиёсий матннинг лисоний хусусиятлари. // <https://oliymahad.uz/30334>

Ijtimoiy-siyosiy matnlarning leksik tarkibiga kelsak, ikki quyi tizim – ijtimoiy-siyosiy leksika va ijtimoiy-siyosiy terminologiyani farqlaymiz.

Tilshunoslikda “ijtimoiy-siyosiy leksika” ta’rifiga turlicha yondashuv mavjud. Ba’zi bir olimlar unga “*ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklar majmui*”³⁶ deya ta’rif beradi. Professor H.Dadaboyev ijtimoiy-siyosiy sohaga oid lug‘aviy birliklarni terminologik nuqtai nazardan tadqiq qilib, quyidagicha ta’rif beradi: “... *ijtimoiy-siyosiy terminologiya leksikaning faol qo‘llanuvchi qatlamlaridan biri bo‘lib, u ma‘lum bir tarixiy formatsiyani belgilab beruvchi tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy, diniy kabi bosh faktorlar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi*”³⁷.

Ijtimoiy-siyosiy matnlarning o‘ziga xos xususiyati – ularning aniq siyosiy yo‘nalishi bo‘lib, u orqali hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxsning prinsipial pozitsiyasi yoki aksincha, muxolifatdagi hokimiyatda namoyon bo‘ladi. Ularda partiya va boshqa jamoat tashkilotlari, davlat hokimiyati organlari, siyosiy rahbarlar va ularning muxoliflari faoliyati aks ettiriladi³⁸.

Gazeta-publitsistik uslubida ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanishi, rivojlanishi turli jarayonlar, jumladan, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, ilmiy va siyosiy jaaryonlardagi o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Albatta, gazeta-publitsistik uslubi zamonaviy siyosiy voqealar va jarayonlarni aks ettirishga intiladi. Shuning uchun mualliflar ko‘pincha hozirgi hodisalar va tendensiyalarni aks ettiruvchi yangi tushuncha va terminlardan foydalanadilar. Bu esa ushbu tushunchalarni gazeta tilida voqelanishiga sabab bo‘ladi. Ularga misollar keltiramiz: “*parlament*”, “*Senat*”, “*Oliy Majlis*”; “*Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi*”; “*ijtimoiy masofa*”, “*barqaror rivojlanish*”, “*pragmatik ruh*”; “*tashqi siyosiy maydon*”; “*barqaror holat*”; “*iqtisodi sherikchilik*”; “*siyosiy va iqtisodiy tobelik*”; “*mintaqa davlatlari*”; “*so‘z erkinligi*”; “*islohotlar modeli*”; “*izchil siyosat*”; “*keng ko‘lamli islohatlar*”; “*ehtimoliy tazyiqlar*”; “*xalqning ma’naviy yetukligi*”; “*milliy istiqlol*”; “*strategik yo‘nalishlar*” va h.k.

Ma’lumki, siyosiy va davlat hayoti bilan bog‘liq tushunchalar ham dinamik jarayon. Bu davlat siyosati va faoliyati bilan bog‘liqdir. Hozirda o‘zbek siyosiy tiliga yangi tushunchalarni kirib kelishini quyidagi misollarda kuzatishimiz mumkin: “*Obod qishloq*”; “*Obod mahalla*”; “*Mahalla tizimi*”; “*Mahalla yettiligi*”; “*Ijtimoiy himoya*”; “*Obod qishloq*”, “*Harakatlar strategiyasi*”; “*Yangi O‘zbekiston*”; “*Renessans davri*” va h.k. Ularning

³⁶ Бурячок А.А. Формирование социально политической лексики. – Киев, 1983.

³⁷ Дадабоев Х. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати. // Алишер Навоий таваллудининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция тезислари. – Т.: Фан, 1991. – Б. 68.

³⁸ Юсупов А. Ижтимоий-сиёсий матннинг лисоний хусусиятлари. // <https://oliymahad.uz/30334>

o‘zbek va rus tilidagi gazeta matnida voqealashiga misollar keltiramiz: *“Obod mahalla”* va *“Obod qishloq”* dasturlarining samarasini bugun har bir inson o‘z hayotida yaqqol his etmoqda”; *“Shu boisdan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda ham xalq vakillari bo‘lgan senator va deputatlar alohida muhim o‘rin tutadi”*; *“Jumladan, Harakatlar strategiyasi doirasida xalq bilan muloqot qilishda jamiyat boshqaruvining tayanch bo‘g‘ini bo‘lgan...”*; *“...islohotlar samarasi bevosita aks etadigan mahalla tizimida har bir fuqaro murojaatlari bilan ishlashning “mahallabay”, “xonadonbay” kabi mutlaqo yangi mexanizmlari joriy etildi”*; *“Заслушана информация о регулярном вовлечении населения на основе принципа “махаллабай” в концертно-зрелищные мероприятия (“Народное слово”. 16.10.2024)*; *“Прцветающая махалля – это процветающая страна. ... На совещании отмечено, что помощники хокимов должны ежедневно работать с населением, провести в своих махаллях изучения в рамках “железной”, “женской” и “молодёжной” тетрадей и актуализировать данные социального реестра (yuz.uz. 18.01.2022).*

Shuni alohida qayd etish kerakki, ijtimoiy-siyosiy leksikada yangi tushunchalarning paydo bo‘lishi va keng tarqalishi maslakatda olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liqdir. Tilimizda mavjud bo‘lgan ba’zi so‘z va iboralar terminlashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Masalan, *“Necha yildirki, O‘zbekistondagi ijobiy o‘zgarishlar, erishgan yutuqlarimiz chet ellarda ham ovoza bo‘lmoqda, xorijliklar tiliga “O‘zbek modeli” degan ibora tushdi”*; *“O‘tgan besh yillikda Harakatlar strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishda xalq hokimiyatchiligi mexanizmlarini kuchaytirish, davlat hokimiyati tarmoqlari mustaqilligini ta’minlash va parlamentning rolini yanada oshirish borasida qilingan ishlar o‘z samarasini ko‘rsatdi”* (“Xalq so‘zi”. 04.01.2001); *“Milliy istiqlol g‘oyasi har birimizni ana shu kichik jasoratga - hech bo‘lmasa ana shu bunyodkor, jasoratli 1000 likning bittasi bo‘lishga chorlamoqda”* (“Xalq so‘zi”. 01.01.2004) va h.k.

Metaforalar ijtimoiy-siyosiy leksikaning bir qismiga aylanganligini matnning ta’sirchanligini oshirish va auditoriyaning diqqatini jalb qilishda muhim rol o‘ynashini ko‘rishimiz mumkin. N.D.Arutyunova metaforaning ko‘plab til jarayonlariga, semantikaning rivojlanishiga, yangi leksika paydo bo‘lishiga aloqador ekanini ta’kidlaydi. Lekin tilni boyitish manbai sifatida ijobiy ta’sir ko‘rsatishdan tashqari, metaforaning har joyda va har qanday holatda bo‘lishi haqidagi tasavvurning salbiy tomonlari ham bor. Shu sababli, ushbu fikr tufayli metafora tushunchasi o‘z mazmunini yo‘qotdi va natijada «metafora deb san’at matni va tasviriy san’atlarda - rassomlik, kinematografiya, teatrdan mavjud bo‘lgan har qanday kosven va obrazli ma’no

ifodalash usulini atashni boshlashdi»³⁹. Metafora amaliy nutqda, shuningdek, san'at va ilmiy ishlarda usul va mafkura sifatida o'rganiladi⁴⁰.

Yangi metaforalarining vujudga kelishi, shakllanishi va adabiy tilga kirib kelishida, birinchidan, ijtimoiy-siyosiy voqealarni siyosiy terminologik metaforalarni yaratilishida insonlarni qurshab turgan voqea va hodisalar manba bo'lib hizmat qilishini, ikkinchidan, metaforalar doimo soha mutaxassislarning tomonidan paydo bo'lishi va bu o'z navbatida ijtimoiy voqelik, siyosiy jarayonlar, xalqning turmush tarzi, tajribasi, tilda namoyon bo'luvchi olam manzarasi bilan bog'liqligini kuzatamiz. Zamonaviy o'zgaruvchan muhitda yangi metaforalarning yaratilishi murakkab va muhim vosita sifatida ijtimoiy-siyosiy sohada qo'llaniladi. Umuman olganda tilga zamonaviy texnologiyalarning ta'siri natijasida yangi metaforalar kiritishga sabab bo'ladi. Masalan, *axborot tarmog'i, tezkor xotira; ko'zgu; tarmoq choki; elektron aravacha; aqlli tarmoq, tahliliy hujum; sharpa; sun'iy aql; elektron miya; robot miyasi* kabi iboralar bu texnologik o'zgarishlarning ta'sirida paydo bo'lgan metaforalardir. Aytish joizki, global iqtisodiy inqirozlar yoki siyosiy o'zgarishlar matbuot tilida yangi metaforalar yaratishga turtki beradi. Masalan, *iqtisodiy sunami, siyosiy bo'ron, yashil inqilob* kabi tasvirlar vaziyatning jiddiyligini va kuchini ifodalash uchun ishlatiladi.

Hozirda atrof-muhitning o'zgarishi, muhim ekologik masalalar ham ijtimoiy-siyosiy leksikada yangi metaforalarning paydo bo'lishiga va ushbu tushunchalarni matbuotda voqelanishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, *global isitish, yashil makon* kabi iboralar ekologik masalalarga e'tiborni jalb qiladi «**Yashil makon**» loyihasi doirasidagi daraxtlarni nomiga emas, «hayotimiz uchun, o'pkamizning tozaligi uchun ekish zarur, chunki bu o'zimizga, jamiyatimizga, salomatligimizga kerak», – dedi O'zbekiston Prezidenti⁴¹. «**Yashil makon**» umummilliy loyihasi: *Navoiy tabiatga xiyonatni nimaga qiyoslagan edi?*⁴² va h.k.

O'zbek gazeta matnlaridagi metaforalar misollarini tahlili jarayonida turli mavzularda ko'p qo'llaniladigan metaforalarni misol qilish mumkin: «*taraqqiyot qadamlari*»; «*taraqqiyot yo'li*»; «*siyosiy sahna o'yinlari*»; «*axborot urushi*»; «*axboriy xuruj*»; «*jamiyat poydevori*»; «*og'ir vaziyat*»; «*daxolik qirralari*»; «*tafakkur kuchi*»; «*katta ruh*»; «*o'tkir muammo*» va h.k.

Quyida matbuot tilida yangi metaforalarning paydo bo'lishini tavsiflovchi asosiy jihatlarni keltirib o'tamiz va gazeta matnlariga murojaat qilamiz:

³⁹ Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. // Теория метафоры. – М.: 1990. – С. 5-32.

⁴⁰ Гак В. Г. Метафора: универсальное и специфическое. // Метафора в языке и тексте. // Отв. ред. В.Н. Телия. – М.: Наука, 1988. – С. 11-26.

⁴¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2023/10/16/yashil-makon/>

⁴² <https://yuz.uz/news/yashil-makon-umummilliy-loyihasi>

“Bugungi global iqlim o‘zgarish davrida tuproq unumdorligini saqlab qolish va oshirish **masalasi** tobora **o‘tkir muammoga** aylanib bormoqda” (“Jamiyat”.18.08.2022); “**Axboriy xuruj** orqali turli xil manipulyatsiyalar amalga oshirmoqda...”; “Yaqin-yaqingacha ayollarimizning hayoliga ham kelmagan bunday **ulkan ishlar**, aniq natijalar ularning qalbida kelajakka **ishonchni mustahkamlab**, juda **katta ruh va ishtiyoq** bag‘ishlamoqda” (“Yangi O‘zbekiston”. 26.03.2022); “O‘zbekiston iqtisodiyotini **rivojlantirish yo‘lidagi har bir qadam mamlakatning taraqqiyoti** uchun muhim ahamiyatga ega”; “Kecha “Munosib mehnat-barqaror **jamiyat poydevoridir**” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi” (“Yangi O‘zbekiston”. 26.03.2022); “Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish masalalariga bag‘ishlangan **ochiq muloqot va davra suhbatlarini muntazam o‘tkazishga bosh-qosh bo‘lishimiz kerak**” (“Yangi O‘zbekiston”. 26.03.2022) va h.k.

Yangi metaforalar ijtimoiy-siyosiy qarashlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni ommaga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Yangi ijtimoiy-siyosiy metaforalarga “**daftar**” leksemasi ishtirokida yasalgan metaforalarni keltirish mumkin: “Bundan tashqari, shu yil 1- apreldan boshlab, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan, “**ayollar daftari**”, “**yoshlar daftari**”, “**temir daftar**” ga kiritilgan, yetim yoki ota-onasining qaramog‘isiz voyaga yetgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni ijara asosida vaqtincha xonadon bilan ta‘minlash maqsadida ikkilamchi uy-joy bozoridan ijtimoiy uylar sotib olishga ruxsat berilmoqda” (“Yangi O‘zbekiston”. 26.03.2022). Ushbu “**ayollar daftari**”, “**yoshlar daftari**”, “**temir daftar**” misollarida ma‘no ko‘chish orqali metafora yasalgan. Davlatimiz tomonidan aholini yashash tarzini yaxshilash, har tomonlama ko‘mak berishga qaratilgan siyosati. “**Temir daftar**” – ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir hamda sektor rahbarlari tomonidan alohida nazoratga olingan oilalarni qayd etish, muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi hisoblanadi; “**ayollar daftari**” – kam ta‘minlangan, boquvchisini yo‘qotgan ayollar ro‘yhati ma‘nosida keladi, “**yoshlar daftari**” – yordamga muxtoj boquvchisini yoshlar ro‘yhatini nazarda tutiladi.

Sarlahlarda ham yangi metaforani voqelanishini kuzatishimiz mumkin: “**TEMIR MAHALLA – TEMIR MILLAT**” (“Yangi O‘zbekiston”. 04.01.2022) va h.k.

Yana bir misol “**qanot**” leksemasi ishtirokida yasalgan metaforalar. “**Bu borada siyosiy partiyalar qoshidagi “Ayollar qanoti”, “Yoshlar qanoti” faollari, mahalliy Kengashlar deputatlari bilan birgalikda ish olib borsak, samarasi yaxshi bo‘ladi**” (“Yangi O‘zbekiston”. 26.03.2022). Keltirilgan misolda, “**Ayollar qanoti**” hamda “**Yoshlar qanoti**” jumalari orqali metafora asosida ma‘no ko‘chgan. “**Qanot**” so‘zi o‘z ma‘nosida qushning qanotiga

nisbatan ishlatilsa, bu soʻzni koʻchma maʼnoda qoʻllash orqali ayollar va yoshlarning faoliyatining rivojlanib borayotganligi nazarda tutilgan. “*Yoshlar qanoti*” – OʻzMTDPning barcha kengashlarida “Yoshlar qanoti” tashkil qilingan boʻlib, ular joylarda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va partiya safida ularning salmogʻini koʻpaytirish borasida samarali faoliyati nazarda tutiladi. Bu metafora jamiyatimiz hayotidagi turli miqyosdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq holda tilda koʻp sonli leksik neologizmlarning paydo boʻlish jarayonini aks ettiradi.

Maʼlumki, til ichki imkoniyatlar evaziga va tashqi taʼsirlar natijasida taraqqiy etadi. Har qanday tilning leksik tarkibi oʻzlashma soʻzlar hisobiga boyib boradi. Aytish joizki, muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoit tufayli tilimiz koʻplab boshqa yot tildan kirib kelgan oʻzlashmalar hisobiga boyib boradi. Albatta, bundan sohaviy leksikalar ham holi emas. Tadqiqotlar oʻzlashmalarning aksariyati sohaga tegishli tushunchalar, yaʼni terminlar ekanligini koʻrsatadi.

Tilshunos olim B.X.Eshonqulovning yozishicha, “...oʻzlashgan soʻzlar tom maʼnoda yangi tilning fonetik va grammatik qonuniyatlari taʼsiriga uchrashini, oʻzlashmagan soʻzlar esa, bunday taʼsirga uchray olmaydi”⁴³.

Oʻzbek tiliga oʻzlashgan ijtimoiy-siyosiy terminlar jamiyatning rivojlanishi va turli tillar oʻrtasidagi aloqalarni aks ettiradi. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning oʻzlashma darajasini gazeta matnida voqelanishi orqali kuzatish mumkin. Oʻzlashmalar tarkibida oldindan auditoriyaga tanish boʻlgan tushunchalar qatoriga “*Parlament*” – qonun chiqaruvchi organ; “*Konstitutsiya*” – davlatning asosiy qonuni, unda davlatning asosiy prinsiplari va fuqarolarning huquqlari belgilab qoʻyilgan; “*Prezident*” – davlatning eng yuqori mansabdor shaxsi; “*Saylov*” – xalq vakillarini tanlash jarayoni; “*Muxolifat*” – hokimiyatdagi guruhga qarshi turuvchi siyosiy kuchlar; “*Referendum*” – muhim davlat yoki mahalliy masalalar boʻyicha xalq ovoz berishi; “*Siyosatchi*” – siyosiy faoliyat bilan shugʻullanuvchi shaxs; “*Partiya*” – maʼlum siyosiy maqsadlarni koʻzlagan guruh yoki tashkilot; “*Diplomatiya*” – davlatlar oʻrtasidagi rasmiy munosabatlarni boshqarish sanʼati va amaliyoti; “*aholi migratsiyasi*” – aholining ixtiyoriy yoki majburiy koʻchishi yoki aholining bir mamlakat ichida (aholining ichki migratsiyasi) yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga (aholining tashqi migratsiyasi: emigratsiya va immigratsiya) koʻchishi kabilarni kiritish mumkin.

Hozirda tilimizga yangi iqtisodiy terminlarni kirib kelishi va faollashuvini quyidagi gazeta matni orqali kuzatishimiz mumkin: “*elektron biznes*”; “*elektron pul*”; “*elektron tijorat*”; “*internet biznesi*”; “*mobil iqtisodiyot*” –

⁴³Эшонқулов Б.Х. Ўзбек адабий тилида арабча луғавий ўзлашмаларнинг парадигматик асимметрияга муносабати. – Т., 1996. – Б. 3.

“iqtisodiyotning mobillashuvi”; “raqamli sektor”; “transchegaraviy biznes; “bozor segmenti”; “tijoriy maydon”; minimal xarajat” – “maksimal foyda” va h.k.

Gazeta matniga murojaat qilamiz: “Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar **elektron pul orqali amalga oshiriladi**”; “Raqaamli iqtisodiyot **raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog‘langan, raqaamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir**”; “... **transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabilarni qamrab oladi**” (“Yangi O‘zbekiston” 28.01.2020). Misolarda **elektron pul, raqaamli texnologiyalar, elektron biznes, elektron tijorat, raqaamli tovar, raqaamli xizmatlar, transchegaraviy biznes, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis** kabi yangi terminlar voqealangan va keng auditoriyaning iste‘moliga kirib kelishiga sabab bo‘lgan. Yana shu narsani alohida qayd etish lozimki, ushbu terminlar iqtisodiy hamda internet terminlarining qorushuvida hosil bo‘lgan. Shuningdek, o‘zlashma internet terminlarining faollashuvi kuzatiladi: “... **IT-park barpo etildi**”; “**Axborotlashgan jamiyat**”; “**Itelektual salohiyat**”; “**Internet tezligi, raqaamli uzilish...**”; “**Click? Payme M-bank Upay Oson va boshqa onlayn to‘lovlarga imkon beruvchi to‘lov tizimlari mavjud bo‘lishi**; “**Kibermokanda din niqobidagi kiberxujumlar**”⁴⁴; “Глава государства предложил реализовать до 2030 года “**Цифровой Узбекистан – 2030**” (“Народное слово”. 28.12.2018); До 1 мая 2026 года в рамках проектов внедрения **технологий искусственного интеллекта** будут запущены **вычислительные мощности, предназначенные для обработки данных** (“Народное слово”. 18.10.2024); В Стратегии «**Узбекистан–2030**» поставлена цель войти в топ–30 Рейтинга **электронного правительства ООН** (parliament.gov.uz. 09.09.2024); **Цифровая среда: эпоха перемен** (uzbekistan.org.uz. 09.09.2024); Президент утвердил реализацию программы “**Цифровой Ташкент**” (gazeta.uz. 18.03.2020); **Электронная торговля в мире и Узбекистане; Электронная коммерция по своей скорости и себестоимости стала более эффективным инструментом торговли... так как все операции можно проводить в онлайн-режиме** (yuz.uz. 16.12.2020).

Tadqiqot jarayonida olib borilgan so‘rovnomada auditoriyaning gazeta orqali axborot olishdagi o‘rnini belgilash orqali, gazeta tilining tushunarlilik va matndagi muammolarni (aniqlik, mantiqiylik, matndagi xatolar va h.k.) mavjudligi aniqlandi. Bu gazetxonlarga axborot matnini yanada

⁴⁴ <http://old.muslim.uz/index.php/jaholatga-qarshi-marifat/maqola/item/34949-kibermakonda-din-ni-obidagi-kiber-uzhumlar-ta-didiga-arshi-kurash>

moslashtirilgan kontent taqdim etishga, nashriyotlarni auditoriyaning ehtiyojlariga javob beradigan mavzularni tanlash, matni shakllantirishda adabiy til meyorlariga to'liq amal qilish va gazeta tilida voqeanayotgan yangi tushunchalar tilning taraqqiyoti va o'zgarishlariga auditoriyaning munosabatini belgilab berdi. O'zbek media tilining rivojlanishiga auditoriyaning munosabatini e'tiborga olish uchun soha ekspertlari, jamoatchilik vakillari va oddiy foydalanuvchilar bilan so'rovlar o'tkazish va ularning fikrlarini o'rganish foydali bo'ladi.

XULOSA

1. Zamonaviy sotsiolingvistika tilga ta'sir qiluvchi turli omillarni inobatga olib, tilning ijtimoiy farqlanishi va jamiyat tuzilmasini o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqadi. Gazeta matni axborot qiymatini belgilovchi turli omillar ta'sirida shakllanar ekan, tilning ijtimoiy farqlanishini e'tiborga olish zarurati tug'iladi. U kasbiy, demografik, ijtimoiy-madaniy, psixologik belgilarni o'z ichiga olgan, barcha lisoniy resurslar tomonidan shakllangan, funksional bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega ijtimoiy aloqani o'z ichiga oladi.

2. Gazeta tilining tadqiqi uning funksional-uslubiy mavqeini, lisoniy-uslubiy xususiyatlarini sotsiolingvistik yondashuv asosida o'rganishni ham taqozo etadi. Zero, gazeta matnining shakllanishida uslubiyatning vazifasi ma'lum bir ijtimoiy doiraga mansub insonlarni til qoidalarini samarali qo'llay oladigan va lisoniy an'analarni, uslub va ifodalarning keng ko'lamini taqdim etadigan barcha imkoniyatlardan faol foydalana oladigan qilib shakllantirdi.

3. Har xil turdagi gazetalarni sotsiolingvistik tahlil qilish ushbu nashrlarning siyosiy maqsadlarini, ularga yo'naltirilgan o'quvchilarning ijtimoiy, psixologik va lisoniy xususiyatlarini inobatga olgan holda, lingvistik xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Bunday tahlilning maqsadi gazetalarning uslubiy manbalari muayyan tarixiy sharoitlarda targ'ibotni optimallashtirish vazifalariga qay darajada mos kelishini aniqlashdir.

4. Gazeta matnining sotsiolingvistik omillarini va til taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish turli xil ijtimoiy farqlanish unsurlarini va nashrning ma'lum bir davrida ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy evolyutsiyasini o'rganishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida gazeta matnining lisoniy modelini belgilovchi sotsiolingvistik omillarni aniqlash barobarida ko'p tilli jamiyatda sodir bo'ladigan lisoniy jarayonlarni diaxron va sinxron bosqichda tasvirlash hamda baholash zaruriyati bilan bog'liq hodisa ekanligi asoslandi.

5. Gazetada tilning evolyutsiyasidan farqli o'laroq, hozirgi holatini tavsiflash, tildagi bo'layotgan o'zgarishlarga gazeta tili orqali tilning ijtimoiy

mavqei va uning auditoriyaga munosabati, boshqalar haqidagi axborot alohida ahamiyatga ega. Til siyosati sotsiolingvistikaning bir qismi sifatida qaralishi jamiyatning har qaysi davrda til holatlarini o'rganishda hamda til taraqqiyotining turli jamiyatda lisoniy jarayonlarni boshqarish, nazoratga olishga qaratilgan lingvistik muammolar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

6. Gazeta matni axborot uzatish va jamoatchilik fikrini shakllantirishning kuchli vositasi bo'lib, u axboriylik, qisqalik, ekspressivlik kabi jihatlari bilan auditoriyaga faktlar orqali axborotni tahlil qilish, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarni tushunishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek, sotsiolingvistik tahlil lisoniy usullarni, uslubiy xususiyatlarni va gazeta tiliga ijtimoiy va madaniy omillarning ta'sirini o'rganishga imkon beradi.

7. Gazeta matnlari muloqotning tillararo va madaniyatlararo aspektlarni o'rganish uchun imkoniyatlarni ochadi. Gazeta tilini sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o'rganish atrofimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunish va tahlil qilishga yordam beradi.

8. Gazeta-publitsistik matni, bu, avvalo, ta'sir ko'rsatishi lozim bo'lgan nutq bo'lib, auditoriyaning manfaatlari va qulayligini yuqori darajada hisobga oladi. Demak, nutq manzili nuqtayi nazaridan ham gazeta nutqi ijtimoiy jihatdan o'ta ahamiyatli bo'ladi. Zero, sotsiolingvistika til va ijtimoiy omillar o'rtasidagi munosabatlarning tadqiqini nazarda tutganligi bois, gazeta tilining sotsiolingvistik jihati bu omillarning jurnalistik matnlarda auditoriyaga ta'sir o'tkazishga qaratilganligidan gazeta matnini shakllantirishda til vositalarini tanlash va qo'llash jurnalistdan nutqiy mahoratni talab qiladi.

9. Mediamatnni yaratishda ijtimoiy omillarni inobatga olish va tavsiflash hali ham sotsiolingvistik tadqiqotning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sotsiolingvistika tilga ta'sir qiluvchi turli xil omillarni (ijtimoiy kelib chiqishi, yosh, ma'lumot, kasb, turar joyi, jins, kommunikatsiya kanali, vaziyat, mavzu, shakl, maqsad, muloqot tabiati) hisobga olgan holda, tilning ijtimoiy farqlanishi tuzilmasini va jamiyat tuzilmasini o'zaro bog'liq holda tahlilga tortish maqsadga muvofiqdir.

10. Ijtimoiy-siyosiy leksika til taraqqiyotini, undagi yuz berayotgan o'zgarishlarga sezuvchan hamda tilning dinamikasi, xilma-xilligi va mediamatn shakllanishi va axborotga moslashish qobiliyatini aks ettiruvchi muhim unsur hisoblanadi. Shuningdek, siyosat tili jamiyatning barcha darajalarida ijtimoiy va siyosiy kommunikatsiya uchun muhim vosita bo'lib, bu ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalaridagi o'zgarishlar natijasida doimiy ravishda yangilanib va kengayib boradi. Ushbu o'zgarishlar natijasida yangi tushunchalar va realiyalarni ifodalash uchun ishlatiladigan yangi leksika va iboralar paydo bo'lishi tabiiyligi bilan belgilanadi.

11. Matbuot tilida yangi metaforalarning namoyon bo'lishi, tilning dinamik va jonli xususiyatlarini aks ettiradi. Zamonaviy jamiyatlarning o'zgaruvchan muhitida metaforalar murakkab va muhim vosita sifatida qo'llaniladi. Ijtimoiy-siyosiy sohada voqelanuvchi yangi metaforalar til tizimini boyitib boruvchi to'laqonli manba hisoblanadi. Metaforalar tilning taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Metaforalar boshqa ko'chma ma'no hosil qiluvchi vositalar kabi mediamatn kommunikativ faoliyatning asosiy mexanizmi sifatida ham ko'riladi. U tilning boyligini oshirishga, yangi ma'no va tushunchalarni yaratishga yordam beradi. Mediamatnda metafora ichki tasavvurlar va assotsiatsiyalarni faol jalb qiladi. Bu esa ma'noni aniq tasvirlar orqali shakllantirish va ifoda etishga yordam beradi. Bunday jarayon nafaqat jamiyatning madaniy-tarixiy tajribasini aks ettirishga, balki uning taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi.

12. Bosma media jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi asosiy vosita hisoblanar ekan, gazeta tilida o'zlashmalar rolining muhimligi jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy kabi voqeliklarini yoritishda katta ahamiyatga ega. Sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan gazeta tilidagi o'zlashmalar jamiyatning globallashuv jarayonlariga integrallashuvni aks ettiradi. Ular jamiyatning madaniy dinamikasini va globallashuv bilan integrallashuvini anglashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zlashmalarga nafaqat til taraqqiyotining, balki ijtimoiy- madaniy o'zgarishlarning indikatori sifatida ham qaralishi gazeta tilida o'zlashmalarning lingvistik tasnifi ularni to'liq o'zlashtirish, kalkalash, yarim kalkalash usullaridan foydalanish salmoqli ekanligini ko'rsatdi.

13. Tadqiqot jarayonida olib borilgan so'rovnomada yordamida auditoriyaning gazeta orqali axborot olishdagi o'rnini belgilash orqali gazeta tilining tushunarlilik va matndagi muammolarning (aniqlik, mantiqiylik, matndagi xatoliklar va h.k.) mavjudligi aniqlandi. Bu gazetxonlarga axborot matnini yanada moslashtirilgan kontent taqdim etishga, nashriyotlarni auditoriyaning ehtiyojlariga javob beruvchi mavzularni tanlash, matnni shakllantirishda adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilish va gazeta tilida voqelanayotgan yangi tushunchalar tilning taraqqiyotiga va o'zgarishlariga auditoriyaning munosabatini belgilab berdi.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL UNDER
SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT UZBEKISTAN
STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY

ISRAIL MUKADDAS IRGASHEVNA

**THE INFLUENCE OF SOCIOLINGUISTIC FACTORS
ON LANGUAGE DEVELOPMENT**

(based on examples from Uzbek and Russian media texts)

10.00.11 – Theory of language. Applied and computational linguistics

**DOCTOR OF PHILOLOGICAL SCIENCES (DSc) DISSERTATION
ABSTRACT**

Toshkent – 2025

The topic of the doctoral (DSc) dissertation has been registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.2.DSc/Fil814.

The doctoral dissertation has been carried out at the Uzbekistan State University of World Languages.

The abstract of the dissertation is posted in three (Uzbek, English, Russian) languages on the website of the Scientific Council at www.uzswlu.uz and on the website of “ZiyoNet” Information and educational portal at www.ziyo.net.

Scientific consultant:

Teshabayeva Dilfuza Muminovna
Doctor of philological sciences, professor

Official opponents:

Khamrayeva Shakhlo Mirdjonovna
Doctor of philological sciences, associate professor

Siddiqova Iroda Abduzokhurovna
Doctor of philological sciences, professor

Bakirov Poyon Urolovich
Doctor of philological sciences, professor

Leading organization:

**University of Journalism and
Mass Communications of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will take place at a meeting of the One-time Scientific Council based on the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01, authorized to confer academic degrees, at the Uzbekistan State World Languages University on “____” _____, 2025, at _____ o'clock. Address: 100138, Tashkent city, Uchtepa district, Kichik halqa yo'li street, house 21-A. Tel: (99871) 230-12-91. Fax: (99871) 230-12-92; (99871) 230-12-91; email: uzswlu_info@mail.ru.

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of the Uzbekistan State World Languages University (registered under the number _____). Address: 100138, Tashkent city, Uchtepa district, Kichik halqa yo'li street, house 21-A. Tel: (99871) 230-12-91. Fax: (99871) 230-12-92.

The abstract of the dissertation was distributed on «____» _____2025.

(Registry record No ____ dated «____» _____2025.

I.M. Tukhtasinov

Chairman of the one-time scientific Council granting scientific degrees, Doctor of Pedagogical Sciences, professor

Kh.B. Samigova

Secretary of the one-time Scientific Council granting scientific degrees, Doctor of Philological sciences, professor

J.A. Yakubov

Chairman of the scientific seminar under the one-time Scientific Council granting scientific degrees, Doctor of Philological sciences, professor

INTRODUCTION (Annotation of the Doctor of Science (DSc) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. Changes occurring in the fields of science, technology, culture, and politics on a global scale are leading to the emergence of new concepts. The study of language as a social phenomenon in the global media space, the sensitivity of media text to changes in society, and the investigation of its connection with social, cultural, technological, and socio-political factors demonstrate the relevance and multifaceted nature of this scientific direction. Indeed, sociolinguistics encompasses the language community, its situation, socio-communicative system, language code, policy, and language development. Since language functions within a specific social structure of society, sociolinguistics is considered the science that studies language in its social context. Any national language is an important tool in the historical and cultural life of a people. In the full implementation of national policy, it is necessary to comprehensively and scientifically study the role of the doctrine of national languages in language development.

Numerous studies on language development are being conducted worldwide. Notably, significant research is being carried out in scientific institutions of developed countries such as the USA, Great Britain, Russia, Germany, Australia, Canada, and Kazakhstan on topics including sociolinguistics, stages of language development, particularly the role of media language and style in language evolution, the socio-cultural status and uniqueness of language, diachronic and synchronic aspects of languages, and language policy. These studies encompass describing linguistic phenomena in language development, comprehensively examining the essence and characteristics of language realization, analyzing language usage across various domains, exploring sources and methods of language enrichment, and investigating the impact of changes in lexical systems and socio-political contexts on language. The research also addresses the influence of these factors on language development.

In recent years, the issue of language development in our country has risen to a new level. Especially in our modern society, mass media, including new media platforms, are becoming the main factor in the formation of our modern literary language. This phenomenon is linked to many factors, including political, social, economic, and cultural, and the media plays an important role in this process. The language of the media is becoming the main element of the national language due to its unlimited audience and diversity of expressive methods. Media texts, along with expressing the dynamic state of language,

reflect the processes occurring in it, and have a significant impact on the characteristics and state of language. The role of the media in promoting the literary language in the development of the language is very important. These changes are reflected in academic science, especially in the formation and strengthening of the concept of “media language”.

This research serves, to a certain extent, in implementing the tasks defined in the Laws of the Republic of Uzbekistan No. LRU-402-I “On the Protection of Journalistic Activity” of 1997, No. LRU-78 “On Mass Media” of 2007, the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-4947 “On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan” of February 7, 2017, No. PD-5850 “On Measures to Fundamentally Enhance the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language” of October 21, 2019, No. PD-6097 “On Approval of the Concept for the Development of Science until 2030” of October 29, 2020, No. PD-60 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026” of January 28, 2022, No. PD-158 “On the Strategy 'Uzbekistan-2030” of September 11, 2023, the Resolutions No. PL-2909 “On Measures for Further Development of the Higher Education System” of April 20, 2017, No. PL-294 “On Measures to Support Mass Media and Develop the Field of Journalism” of June 27, 2022, the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 262 “On Approval of Certain Regulatory Legal Acts Related to Supporting Mass Media and Developing the Field of Journalism” of June 26, 2023, and other regulatory legal documents pertaining to this activity.

Compliance of the research with the priority directions of the development of republican science and technology. The dissertation was carried out by the priority direction of the republican science and technology development I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, and spiritual educational development of the information society and democratic state”.

Review of foreign scientific research on the topic of the dissertation⁴⁵. A number of scientific studies on the study of national languages in the sociolinguistic aspect are being conducted in leading research schools and educational institutions around the world, including the Department of Linguistics at Stanford University in the United States, in the field of sociolinguistics, as well as language changes and language policy. Duke University is also a leader in the study of sociolinguistics and media linguistics. The University of Lancaster in the United Kingdom and King's College

⁴⁵ www.studylab.ru/education/higher-education/vuzy/stanford-university; www.unipage.net/ru/395/duke_university;
www.london.ac.uk/federation/kings-college-london; www.world.uz/ru/post/view/universitet_lankaster; [www.-euni.ru/vuzy/germaniya/gamburg/gamburg/uni-hamburg/;](http://www.-euni.ru/vuzy/germaniya/gamburg/gamburg/uni-hamburg/) www.monash.edu/

London are leading researchers in the fields of media linguistics, corpus linguistics, discourse analysis, and sociolinguistics. The University of Toronto, Canada, develops extensive programs in sociolinguistics and conducts research in the field of language relations and language policy. The University of Hamburg (Universität Hamburg) in Germany has a school that deals with media linguistics, language and media, and sociolinguistic analysis of language. Monash University in Austria also pays special attention to the study of languages with different systems based on a sociolinguistic approach. The linguistic features of foreign languages are also being studied at Moscow State Linguistic University (MGLU). The university actively develops programs in the field of language theory and sociolinguistics, media linguistics, and prepares dissertations for defense. The Institute of Linguistics of the Russian Academy of Sciences specializes in such areas as language theory, linguistic typology, and sociolinguistics. The Uzbekistan State World Languages University also conducts research on media linguistics, sociolinguistics, and pressing issues of language theory. The University of World Languages of Uzbekistan also conducts research on current problems in media linguistics, sociolinguistics, and language theory. Currently, in world linguistics, scientific research is being conducted in areas such as language theory and typology, sociolinguistics. There are many modern studies devoted to the development of language theory. They are aimed at identifying the evolution and development of the emergence of language, linguistic and extralinguistic factors that influence the structure of language. Research aimed at studying language phenomena in a social context, that is, within the framework of the relationship between language and society, is characterized by the study of how language variants differ between social groups, the social status of language, as well as its social factors.

The degree of study of the research. Research on sociolinguistic analysis in Uzbek and Russian linguistics can be cited in the works of scholars such as Kh.Yuldasheva, S.M.Muminov, M.Sulaymonov, M.A.Kurbonova, N.Sabirova, Kh.Nematov, B.Juraeva, R.Madjidova, Kh.Ismoilov, G.Rahimov, Y.D.Desheriyev, S.V.Kirilenko, V.M.Alpatov, A.N.Baskakov, L.L.Ayupova, T.B.Kryuchkova, V.K.Juravlev, O.A.Ponomarenko, S.I.Treskova, S.G.Kulagina, L.P.Krisin, V.A.Avrarin, E.G.Tumanyan, A.D.Shveyser, L.B.Nikolskiy⁴⁶. The research analyzes current issues of sociolinguistics, the

⁴⁶ Ёўлдашева Х. Ўзбек тарихий романларининг социолингвистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 45 б.; Сулаймонов М. Ўзбек тилидаги дастхатларнинг социолингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 151 б.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри... дисс. – Т., 2000.; Курбонова М.А. Ўзбек болалар лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2009. –177 б.; Сабирова Н. Социолингвистик тадқиқотлар ва уларнинг ривожланиш босқичлари. Farg'ona davlat universiteti, 2023, (2), 47. // <https://doi.org>

formation of identity among members of society through language, cultural heritage, the issue of historical values, the study of proverbs in a sociolinguistic aspect, the formation of literary norms, the dynamics of language use among different groups, and the analysis of various models of language policy.

Development of the literary language, the issues of how language undergoes transformation in the context of globalization are reflected in the works of Y.Odilov, N.Makhmudov, M.Ruzikulova, Z.Raufjonova, A.Khojiev, B.Kholmukhamedov, Sh.Makhmaraimova, N.N.Bolysheva, M.Y.Kaplunova, M.Y.Golik, Y.B.Koryakov, V.M.Alpatov, L.K.Bayramova, Y.Z.Garipov, M.Mukharyamova⁴⁷.

/10.56292/sjfsu/vol_iss2 /a47; Нормуродов Р. Социоллингвистика. – Термиз, 2008; Неъматов Х., Жўраева Б. Социоллингвистика. – Бухоро, 2004; Исмоилов Х. Суд нутқининг социоллингвистик таҳлилига доир. – Farg‘ona davlat Universiteti, (6), 24.2023. // https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol_iss6/a24; Маджидова Р. Речевое поведение человека в социоллингвистической и психоллингвистической трактовках. – Farg‘ona davlat universiteti, (1), 20.2023. // https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol_iss1/a20; Раҳимов Ғ. Инглиз тилининг Ўзбекистонда тарқалиши (социоллингвистик ва прагматик жиҳатлар): Филол. фан. д-ри. дисс... – Тошкент, 2018.; Дешериев Ю.Д. Социальная лингвистика. К основам общей теории. – М.: Наука, 1977. – 382 с.; Кириленко С.В. Процессы формирования понятийного аппарата социоллингвистики: Дисс. канд. фил. наук. – М., 2016; Словарь социоллингвистических терминов. – М.: Институт языкознания РАН, 2006. – 312 с.; Аврорин В.А. Языковая ситуация как предмет социоллингвистики. // Изв. СО АН СССР, сер. общ. наук, 1973, вып. 3, № 11. – М. – С. 7-11; Алпатов В.М. Социоллингвистическая ситуация в Японии XIX-XX вв. // Диахроническая социоллингвистика. – М., 1993. С. 104-120; Аюпова Л.Л. Социоллингвистика в Башкортостане. // Актуальные проблемы филологии. – Уфа, 1997. – С. 6-7; Баскаков А.Н. Социально-демографические и социоллингвистические факторы языковой ситуации в национальных регионах России. // Родной язык, 1994, № 1. – С. 6-8; Диахроническая социоллингвистика. – М.: Наука, 1993. – 204 с.; Журавлев В.К. Диахроническая социоллингвистика (предмет, задачи, проблемы). – М., 1993. – С. 3-20; Крысин Л.П. Социоллингвистическое исследование вариантов современного русского литературного языка: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – М.: МГУ, 1980. – 30 с.; Крысин Л.П. Функциональная социоллингвистика: статус, проблемы перспективы исследований. // Язык и общество в современной России и других странах. – М.: Тезариус, 2010. – С. 27-31; Крючкова Т.Б. К вопросу о методах социоллингвистических исследований. // Теоретические проблемы социальной лингвистики. – М., 1981; Пономаренко О.А., Кулагина С.Г. Социоллингвистический и коммуникативный аспекты билингвизма. // Исследование различных типов и жанров текста. – Сургут, 1999. – С. 80-82; Принципы и методы социоллингвистических исследований. – М.: Наука, 1989. – 196 с.; Трескова С.И. Социоллингвистические проблемы массовой коммуникации. – М., 1989. – 152 с.; Туманян Э.Г. Социоллингвистические факторы однотипных изменений в этнических языках народов бывшего СССР. // Социальная лингвистика в Российской Федерации (1992-1998). – М., 1998. – С. 33-34; Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социоллингвистику. – М.: ВШ, 1978. – 216 с.; Швейцер А.Д. Социальная дифференциация английского языка в США. – М., 1983.

⁴⁷ Ҳожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III том. – Тошкент: Фан, 1991. – 132-б.; Холмухамедов Б. Ўзбек тилида лексемалашув: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2020; Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – 245 б.; Махмудов Н. Зиддият ва лисоний бирликда маъно тараққиёти. // Махмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъноси тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Академнашр, 2014. – 12-б.; Махмараймова Ш.Т. Луғавий бирликлар ўртасидаги эпидигматик муносабат. // Научно-практическая конференция. – Тошкент, 2021; Большева Н.Н. Развитие языка в условиях глобализации: социально-философский аспект: Автореф. ... канд. философ. наук. – М., 2006; Каплунова М.Я. Языковая политика и функциональное развитие языков в КНР: Автореф. канд. филол. наук. – М., 2017. – 24 с.; Голик М.Я. Язык интернет–СМИ как отражение сознательного воздействия общества на язык в эпоху глобализации (на материале заимствованной лексики в английском, русском и китайском языках). // Вопросы филологии. № 3–4 (48). – М., 2014. – С. 142-152; Коряков Ю.Б. Языковая ситуация в Белоруссии и типология языковых ситуаций: Дисс. ... канд. фил. наук. – М., 2002; Алпатов В.М. История лингвистических учений. – М., 1999. – 251 с.; Байрамова Л.К. Столкновение смыслов языковых единиц на газетной полосе. // www.ksu.ru/science/news/ruslang/t40.htm; Гарипов Я.З. Тенденции национально-языкового развития. // Социоллингвистические исследования. 1989. – № 2. – С. 3-13; Гарипов Я.З. Функциональное развитие татарского языка как государственного. // Социоллингвистические проблемы функционирования государственных языков РТ: сб. научн. статей. – Казань: Татар, 2007. – С. 17-32; Мухарямова Л.М. Язык и языковые отношения как предмет политической науки: теория и методология анализа: Дисс. ... д-ра полит. наук. – М., 2004. – 406 с.; Рузикулова М.Ю., Рауфжонова З.Т. Глобаллашув даврида фан ва таълимнинг долзарб масалалари. // Молодой ученый, 2017. – № 4. 2 (138.2). – С. 44-52; Каравичева Т.В. Эволюция языка средств массовой информации в публикациях экономической и социально-

The characteristics of the language of mass media in Uzbek and Russian linguistics, as well as media texts, have been analyzed in the works of D.M.Teshabayeva, I.E.Toshaliyev, A.Abdusaidov, G.X.Bakiyeva, M.I.Israil, L.I.Tashmukhamedova, S.Kh.Shamaksudova, A.X.Mirzajonov, Y.R.Odilov, Sh.B.Usmonova, M.R.Artikova, Sh.Jabborova, N.B.Atoboev, A.O.Toleubayeva, D.Shifrin, T.G.Dobrosklonskaya, I.M.Shevelevskiy⁴⁸. The research identified specific aspects of media language, modern trends, features of media text creation, the role of language in the creation and dissemination of information, manipulation, expressiveness of media language, and the role of various language tools in media text creation.

The sociolinguistic study of newspaper language was conducted by scholars such as I.P.Lisakova, R.M.Blakar, E.V.Vlasova, V.G.Kostomarov, A.M.Selishev, and S.V.Mosheva⁴⁹. These studies thoroughly analyze the study of newspaper language in a sociolinguistic aspect, the historical principles of newspaper journalistic style, and the sociolinguistic features of advertising language. However, there has not been a specific monographic work dedicated

правовой тематики: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2005; Дахиль В.С. Инновации в языке современных российских интернет-медиа. Международный научно-исследовательский журнал. – № 1 (115). Часть 4. – 2022.

